

АЛИ НИЁЗ

ВАҚТ ЗАРБИ

Шеърлар



Тошкент
«Янги аср авлоди»
2006

84(59)6-5 баъзи ишлар
Шеърлар

Шеър инсон кўнглидан оқади. Асл шеър чиннакам маънода юракнинг оғриқларидан, сарҳади йўқ руҳиятнинг поёнсиз табиат билан тўқнашгандаги ёки мужассамлашгандаги ҳолатидан туғилади.

Шеър кайфият ҳам... У баъван адалатга, ҳаққа ташна бўлиб инграса, гоҳида оддийгина меҳрига вор бўлади, гоҳида инсоний бахти қайнаб ётганини ҳис қилса, баъвида келажакнинг дарди билан ўзини дардман севади. Умуман алганда, шеър мукамал ҳаёт тажассумининг қочовдаги акси, холос.

Қашқадарёлик шоир Али Ниёзнинг қўлимгадаги «Вақт зарби» китоби ҳам худди шундай туйғуларнинг аксидир. Сиз ундан ҳамма нарсани топасиз. Асосийси, бахту бахтсизлик, асл инсон сурати ва сийратидаги мутаносиблигу номутаносиблик, ҳаёт ва шахс муаммолари шоирнинг ўзига хос нуқтаи назари асосида эътироф этилган. Келинг, сиз ҳам шоир қалбининг уришига қулоқ салинг.

1031999
391

2006	Alisher Navoiy
A5925	nomidagi
	O'zbekiston Mi

ISBN 5-633-01834-6

© Али Ниёз. «Вақт зарби». «Янги аср авлоди». 2006 йил

ҲАҚҒЎЙ САТРАЛАР

Али Ниёз 1950 йилда Ғузвор туманининг Тошгузар қишлоғида туғилган. У ёшлигидан бошлаб шеърлар машқ қила бошлаган. Унинг шеърлари «Шарқ юлдузи», «Ёш куч» журналлари, кўплаб рўзномаларда чоп этилган.

«Насаф» нашриёти иқтидорли шоир Али Ниёзнинг «Сиз мени билмайсиз» номли китобини чоп этди. Муаллиф мавкур китобини нечук «Сиз мени билмайсиз» деб атади экан. Чунки Али Ниёз аллақачон ўз мухлислари ишончини қовониб улгурганлигидан хабарим бор. Китобдаги шеърларини ўқир эканман, шоир дўстимнинг ички дунёси мен ўйлагандан ҳам мураккаб ва бой эканлигига қатъий ишонч ҳосил қилдим. Сухбатларда ўзининг камтапаллиги-ю, камтарлиги билан алоҳида ажралиб турадиган, доимо ўйчан дўстим шеъринингнинг фалсафий теранлигини, уларда ички бир нидо борлигини англай бошладим. Алижоннинг мавкур тўпламига кирган аксарият шеърлари баркамол, гўвал ташбеҳларга бой эканлигининг гувоҳи бўлдим.

Авалло шуни таъкидлаш лояимки, Али Ниёз шеърларида чинакам инсоний бир дард бор. Эл-юрт олдидаги чексиз бурчлилик асосида шоир қалбидан дил оғриқлари силқий бошлайди.

*Сочларим оқарди дардларинг ўйлаб,
Кўяларим қорайди ич-ичидан.
Қошимда турибман ҳасрат-ла йиғлаб,
Юртим, бемор юртим, мени кечиргин...*

Шоир бир шеърда «Кўнглим йиғлаётти сизмай ўйимга» дейди, «виждонлар эриди, орлар эриди» дея бонг уради ва ўз мисраларида ҳислар тугёнига эрк беради:

*Менга беринг дунёнинг тошмини,
Бўйнимга осиб юраман,
Майли бўлсин, ҳамма ташвишлар,
Битпагина менинг бўйнимда.*

Али Ниёз шеъринингига хос безовталиқ, халқ дарди билан ўз дарду ўйларининг омихталиги асосида ифода этилган мана шу шеърини лавҳалар ҳеч кимни лоқайд қолдирмайди:

*Ҳаёт мунозара, тортишару экан,
Ким ҳақу ким ноҳақ, олишув экан.
Уртада чин-ёлмон қорашув экан,
Қўллар бир-бирига бетараф ўтди.
Елмонлар яшаса, оҳ, қандай чидай,
Виждонлар қақшаса, оҳ, қандай чидай...*

Али Нисё ижтимоий ҳаётга аралашадиган ижодкор. Унинг шеърларидаги авоҳил уйлар, инсон умрининг маъноси, бахт, бахтсизлик, ҳақиқий фалсафий умумлашмаларга бой ташбеҳлар кўпчилик эътиборини торттига эшонган.

Нафсиламбирини айтганда, Али Нисёнинг аксарият шеърлари ўқувчига катта маънавий овиқ бера оладиган, ҳар қандай адабий-танқидий текширишларга бемалол дош бера оладиган юксак даражадаги ижод маҳсулидир.

Али Нисёнинг иссинчи шеърини тўплами «Ҳаётнинг бир парчаси» ўқувчилар ҳузурга ҳавола этилди. Шоирнинг ушбу китобини шеърини китобини ўқиб экансиз, шоирнинг назмий кўтидори янада ортиб, ташбеҳлар янада баркамоллашиб, гўшланиб борётганининг гувоҳи бўласиз. Шоирнинг тўламини «Асрим» шеъри билан очилади. Маъжур шеърининг ўшидагиси Али Нисё андвалида шоир сифатида ҳақ ҳаётни муаммоларига, жаминда юз бераётган улкан ўзгаришлар масаласига янада чуқурроқ кириб бораётганини кўидаги сатрларини ўқиб билан ҳам эътироф этиш мумкин:

*Ахир нечук, анди таажжуб қилай,
Бир одам ақлида бомба яратса.
Мен уни қандайин, қандайин ёқлай.
Ҳавони булғаса, асримни ёқса.
Ниҳол авлодинини кўрқитма асрим,
Маъжуд хавинанини йўқ этма асрим.
Йигирманчи аср армонлар асри,
Йигирманчи аср уммонлар асри...*

Али Нисё том маънода Қашқадарё кенгликлари фарзанди, унинг беғубор ёшлиги Ғубор кенгликларида кечган. Шунинг учун ҳам у тақдир тақовоси билан аввал шаҳарда яшётган бўлса ҳам қалби доимо кенгликлар томон ҳаприқиб талғинади. Шунинг учун ҳам шаҳардаги тала-товурлардан шоирнинг қалбида бироз сикиқликлар кечади:

*Кўп қаватли уйда тураман,
Ерни соғинаман тунлари,
Боворда югандай толиб юраман.
Энтикиб яшайман кунлари...*

Шоир кенгликларни сориниб, қиллоққа борганда она ерга бағрини бериб ётишдан минг бор ҳузурланиб, роҳатланишини, айниқса, тонг маҳал, юзига хуш ҳаво урилишини энгисиб-энгисиб кенгликларга маҳлиё бўлиб тикилишларини рангин буёқларда тасвирлар экан «кенгликда бағримга нур энар» дея шеърита хотима ясайди.

Алижон ҳаётда ҳам, шоир сифатида ҳам ниҳоятда ҳаққўй ва пок инсон. У ҳеч қачон ёлгон билан, имонсизлик билан келиша олмайди. Шунинг учун ҳам шеърларида севинчлар оша нафратлар ҳам акс-садо бериб туради. Шоир ҳақсизликни курса, гарчи оёғи синса ҳам ўзини томдан ташлашга тайёр. Мана бу сатрларини тинглаб қуринг-чи:

*Ёлгонни-ёлгон деб, ҳақни-ҳақ деган,
Одамлар олдида қиламан таъвим.
Бурчини ўйламай виждонин еган,
Кимсалар турқиға нафратим ёвдим.*

Умуман, Али Ниёзнинг аксарият шеърлари тозаллиги, ҳаққўйлиги ва фикрий товланишлари билан алоҳида ажралиб туради. Шоирнинг қўлидаги сатрлари ҳам фикримизни яна бир бор исботлаши аён:

*Бир лаҳзага — дунёни тушуниб,
Бир лаҳзага — дунёни тушунмай,
Борялман қувониб, толиқиб...
Билмадим, қанча севинч кунлар бор,
Яна қанча ёлгонга ботаман...*

Али Ниёз, ёяган шеърларини саралаб, муъжазгина тўплам қилди ва унга «Вақт зарби» деб ном қўйибди. Бу шоирнинг замон ва вақтга бўлган муносабатининг ифодасидир.

Вақт албатта ҳеч кимдан, ҳеч нарсани сўраб ўтирмайди, оламдаги маажуд кучларга бўйсунмайди. Яратилаётган барча асарларга ўзининг ҳақиқий баҳосини вақт беради...

Биз шоир ижодига муваффақиятлар ёр бўлишини истаймиз.

Бойназар ЙЎЛДОШЕВ,
Қарши Давлат университети
ректори, филология фанлари
доктори, профессор

* * *

Олис-олисларга эркимни қўйиб,
Эрка замонамга қилгум таассуб.
Бир юрак баррингда меҳрингга тўйиб,
Бир юрак имтиҳон берар, таажжуб.

Саволлар, саволлар, жиддий саволлар,
Жавоб излаш билан бошланар артам.
Одам, одам бўлиш даврига қадар,
Қанча саволларга ем бўлдим, эркам.

Бу улуғ тарихнинг неъматларини,
Биламиз таърифин-турибмиз тотиб.
Бизга етиб келган иллатларини,
Баъзан такрорлаймиз хатога ботиб.

Нега? Яна бошда ғуж-ғуж шу ўйлар,
Озгина яхшилик қўшса не бори.
Замонам мен сени юрибман ўйлаб,
Елкамда ўттиз беш йилнинг баҳори...

* * *

Olis-olislariga erkimni qo'yib,
Erka zamonamga qilgum taassub.
Bir yurak bag'ringda mehringga to'yib,
Bir yurak imtihon berar, taajjub.

Savollar, savollar, jiddiy savollar,
Javob izlash bilan boshlanar ertam.
Odam, odam bo'lish davriga qadar,
Qancha savollarga yem bo'ldim, erkam.

Bu ulug' tarixning ne'matlarini,
Bilamiz ta'rifin-turibmiz totib.
Bizga yetib kelgan illatlarini,
Ba'zan takrorlaymiz xatoga botib.

Nega? Yana boshda g'uj-g'uj shu o'ylar,
Ozgina yaxshilik qo'shsa ne bori.
Zamonam men seni yuribman o'ylab,
Yelkamda o'ttiz besh yilning bahori...

* * *

Сочларим оқарди дардингни ўйлаб,
Кўзларим қорайди ичи-ичидан.
Қаршингда турибман ҳасрат-ла йиғлаб,
Юртим, бемор юртим, мени кечиргин...

Ўзимни аядим, шон ширин экан,
Бола-чақа дедим, нон ширин экан.
Уялмай ёлғондан юрибман, нега,
Бергани жоним йўқ, жон ширин экан.

Воҳлар айтганимдан тўлмайди Орол,
Оҳлар айтганимдан ёришмас ҳилол.
Сени юпатишга сўз тополмайман,
Бутун томирларим беҳол-бемажол.

Азаблар тилайман ўзимга-ўзим,
Ғазаблар тилайман ўзимга-ўзим.
Болам, аямагин таъна-тошлар от,
Юртни касал қилган-ёлғон сўзларим.

* * *

Sochlarim oqardi dardingni o'ylab,
Ko'zlarim qoraydi ichi-ichidan.
Qarshingda turibman hasrat-la yig'lab,
Yurtim, bemor yurtim, meni kechirgin...

O'zimni ayadim, shon shirin ekan,
Bola-chaqa dedim, non shirin ekan.
Uyalmay yolg'ondan yuribman, nega,
Bergani jonim yo'q, jon shirin ekan.

Vohlar aytganimdan to'lmaydi Orol,
Ohlar aytganimdan yorishmas hilol.
Seni yupatishga so'z topolmayman,
Butun tomirlarim behol-bemajol.

Azoblar tilayman o'zimga-o'zim,
G'azablar tilayman o'zimga-o'zim.
Bolam, ayamagin ta'na-toshlar ot,
Yurtni kasal qilgan-yolg'on so'zlarim.

ВАҚТ

ВАҚТ – думалаб, ўрмалаб кетаяпти,
Кўриб қолдим унинг дақиқаларин –
Ўғлимнинг бурро-бурро сўзларида,
Эндигина дунёда туғилган –
Жажжи чақалоқнинг кўзларида.

ВАҚТ – ўйноқлаб, чопқиллаб бораяпти,
Навқирон фасларга тутқич бермай.
Лекин шу оламнинг ворисларига
Бор дунёни қолдириб, эгилмай –
Ёшликни яратиб кетаяпти.

ВАҚТ – өшилиб, қийналиб ўтаяпти,
Бесўнақай зарсангни еб-емириб.
Билмадим, қайларга кетаяпти,
Ўзлигини ахтариб йиллардан,
Кексаларнинг юзида чизилиб.

VAQT

VAQT – dumalab, o‘rmlab ketayapti,
Ko‘rib qoldim uning daqiqalarin –
O‘g‘limning burro-burro so‘zlarida,
Endigina dunyoda tug‘ilgan –
Jajji chaqaloqning ko‘zlarida.

VAQT – o‘ynoqlab, chopqillab borayapti,
Navqiron fasllarga tutqich bermay.
Lekin shu olamning vorislariga
Bor dunyoni qoldirib, egilmay –
Yoshlikni yaratib ketayapti.

VAQT – eshilib, qiynalib o‘tayapti,
Beso‘naqay zarsangni eb-yemirib.
Bilmadim, qaylarga ketayapti,
O‘zligini axtarib yillardan,
Keksalarning yuzida chizilib.

* * *

Вайрон бўлган дил,
Харобаси чиққан иморат.
Унда бир қуш қўниб турибди,
Кўзларида ўкинч ва умид.

Ёмон... ҳеч ким ёркаламайди,
Сайролмайди — тили музлаган.
Учишга ҳам йўқдир мадори,
Ёмон... ҳеч ким ётмайди таъқиб.

Вайрон бўлган дил...
Қушча боқар жавдираб кўкка,
Кўзларида мунчоқ-мунчоқ ёш,
Томчилари ерга тўкилар.
Ҳар бир томчи — улкан таъна тош.
Бу ғуборни кўтармоқ оғир!..
Қушча қандай кўтара олдинг,
Шунча ғамни жажжи сийнанганга.
Ахир қандай сиздира қолдинг.
Вайрон бўлган дил ...
Ўксинишга бўлмагин иқрор,
Боргин осмондошлар олдига.
Жароҳатлар қайтадан итар,
Ҳаёт — қанотларинг остида...

* * *

Vayron bo'lgan dil,
Xarobasi chiqqan imorat.
Unda bir qush qo'nib turibdi,
Ko'zlarida o'kinch va umid.

Yomon... hech kim erkalamaydi,
Sayrolmaydi — tili muzlagan.
Uchishga ham yo'qdir madori,
Yomon... hech kim etmaydi ta'qib.

Vayron bo'lgan dil...
Qushcha boqar javdirab ko'kka,
Ko'zlarida munchoq-munchoq yosh,
Tomchilari yerga to'kilar.
Har bir tomchi — ulkan ta'na tosh.
Bu g'uborni ko'tarmoq og'irl..
Qushcha qanday ko'tara olding,
Shuncha g'amni jaji siyangga.
Axir qanday sig'dira qolding.
Vayron bo'lgan dil ...
O'ksinishga bo'lmagin iqror,
Borgin osmondoshlar oldiga.
Jarohatlar qaytadan itar,
Hayot — qanotlaring ostida...

ОЧИҚ СЎЗ

Душманинг ким деб сўрасанг,
Сени кўрсатдим,
Дўстинг-чи ким деб сўрасанг,
Сени кўрсатдим,
Нафрат, ʻэтиборга лойиқ –
Танҳо одамсан,
Бу дунёда сен бўлмасанг,
Нени кўрсатгум.
Менга ёлгонларни қўймай
Ўзинг ўргатдинг,
Ҳақ уруғини кўксимга
Ўзинг ўрнатдинг,
Кечиб-кечолмайман сендан –
Улуғ одамзод,
Бор нафратни-муҳаббатни,
Ўзинг ўргатдинг.
Дўстимсан деб суюнаман
Сени кўрганда,
Душманим деб куйинаман
Сени кўрганда,
Бу дунёни ўзгартишга
Қодир эмасман,
Иложсизман, севги-нафрат
Ёндош турганда.

OCHIQ SO'Z

Dushmaning kim deb so'rasang,
Seni ko'rsatdim,
Do'sting-chi kim deb so'rasang,
Seni ko'rsatdim,
Nafrat, e'tiborga loyiq –
Tanho odamsan,
Bu dunyoda sen bo'lmasang,
Neni ko'rsatgum.
Menga yolg'onlarni qo'ymay
O'zing o'rgatding,
Haq urug'ini ko'ksimga
O'zing o'ratding,
Kechib-kecholmayman sendan -
Ulug' odamzod,
Bor nafratni-muhabbatni,
O'zing o'rgatding.
Do'stimsan deb suyunaman
Seni ko'rganda,
Dushmanim deb kuyinaman
Seni ko'rganda,
Bu dunyoni o'zgartishga
Qodir emasman,
Ilojsizman, sevgi-nafrat
Yondosh turganda.

* * *

О, менинг ўйларим,
менинг ҳисларим,
Улуғ кунлар уюрида қолди энтикиш.
Жуда тиниқ, чароғ эди улкан осмоним,
Шу парча ер қучоғидан олдим тирилиш.
Узун-узун ўйларимдан хотира қолди,
Йигитликнинг олов кўрган қасирғасида.
Юрак қурғур дириллаган кунлар йўқолди,
Ҳаяжонга тушмаяпман қиз нағмасидан.
Олисларда қолиб кетди эскирмас орзум,
Кела олсанг, келгин энди, зорикдим-толдим.
Ҳаяжонга кўмгин мени, уйинга тушай,
Ёшлик, сенга авайланган бахтимни тўшай.
Кўрганларим эслаб-эслаб ўйга толаман,
Ҳаёт қанча гўзалсан-у,
Шунча раҳмсиз...
Мен кучимни,
Мен ёшимни сенга бераман,
Қаршимда шўх кулиб турган,
Ўғлим, сенга сўя...

O, mening o'ylarim,
mening hislarim,
Ulug' kunlar uyurida qoldi entikish.
Juda tiniq, charog' edi ulkan osmonim,
Shu parcha yer quchog'idan oldim tirilish,
Uzun-uzun o'ylarimdan xotira qoldi,
Yigitlikning olov ko'rgan qasirg'asida.
Yurak qurg'ur dirillagan kunlar yo'qoldi,
Hayajonga tushmayapman qiz nag' masidan.
Olislarda qolib ketdi eskirmas orzum,
Kela olsang, kelgin endi, zoriqdim-toldim.
Hayajonga ko'mgin meni, o'yinga tushay,
Yoshlik senga avaylangan baxtimni to'shay.
Ko'rganlarim eslab-eslab o'yg'a tolaman,
Hayot qancha go'zalsan-u,
Shuncha rahmsiz...
Men kuchimni,
Men yoshimni senga beraman,
Qarshimda sho'x kulib turgan,
O'g'lim, senga so'z...

* * *

Совиб қолди меҳрим менинг,
Совиб қолди вужудим.
Нега йўлнинг ўртасида -
Муаллақ қолди умрим.
Ҳали сени кечирмайман,
Кечирмайман! Йўқ ўлим,
Мозоримнинг тепасида -
Ўлиб-тирилар ўғлим.
Дод деганда даҳшат дедим,
Бу қандайин қиёмат,
Кўз кўришиб, шундай кунда —
Яшаса қон, хиёнат...
Ён вужудим! Титра, қақша,
Нафратинг олов бўлсин.
Меҳринг совиб ўлмагин ҳеч,
Вужудинг ёниб ўлсин,
Менку — Али, ўлганим йўқ,
Бир озгина совидим,
Гулхан ёқинг, гулхан ёқинг,
Исисин совуқ таним.
Нечун кетиб бораяпман,
Ҳаққа зор-ку бу олам.
Ҳақиқатнинг тепасида -
Ўлиб-тирилган болам.

* * *

Sovib qoldi mehrim mening,
Sovib qoldi vujudim.
Nega yo'lning o'rtasida -
Muallaq qoldi umrim.
Hali seni kechirmayman,
Kechirmayman! Yo'q o'lim,
Mozorimning tepasida -
O'lib-tirilar o'g'lim.
Dod deganda dahshat dedim,
Bu qandayin qiyomat,
Ko'z ko'rishib, shunday kunda —
Yashasa qon, xiyonat...
Yon vujudim! Titra, qaqsha,
Nafrating olov bo'lsin.
Mehring sovib o'lmagin hech,
Vujuding yonib o'lsin.
Menku — Ali, o'lganim yo'q,
Bir ozgina sovidim,
Gulxan yoqing, gulxan yoqing,
Isisin sovuq tanim.
Nechun ketib borayapman,
Haqqa zor-ku bu olam.
Haqiqatning tepasida -
O'lib-tirilgan bolam.

* * *

А...га.

Ишга бор, ишдан кел,
Ёт, китоб ўқи.
Сўнгра овқатланиш...
Дам олиш кунлар.
Дўстлар билан суҳбат,
Озгина гийбат,
Кейин узун-узун уйқули тунлар.
Ҳар доим бир хиллик, йиллар сурони...
Уйда бола-чақа,
Хотинга жавраш:

«Сен мени тушунгин, ахир мен сени...»
Араалар йўқолар, бошланар авраш...
Шундай ўтаяпти бу кунлар сим-сим,
Чўкиб кетаяпман йиллар қаърига.
Топа олмаяпман ўзимни ўзим,
Оса олмаяпман умрим дорига.

* * *

A...ga.

Ishga bor, ishdan kel,
Yot, kitob o'qi.
So'ngra ovqatlanish...
Dam olish kunlar.
Do'stlar bilan suhbat,
Ozgina g'iybat,
Keyin uzun-uzun uyquli tunlar.
Har doim bir xillik, yillar suroni...
Uyda bola-chaqa,
Xotinga javrash:

«Sen meni tushungin, axir men seni...»
Arazlar yo'qolar, boshlanar avrash...
Shunday o'tayapti bu kunlar sim-sim,
Cho'kib ketayapman yillar qa'riga.
Topa olmayapman o'zimni-o'zim,
Osa olmayapman umrim doriga.

* * *

Гоҳ шундай кечмишлар бўлади бошда,
Ўлимнинг даҳшати сабаб кўз ёшга.
Ҳар қандай офатга чидар одамзод,
Фарзандлар йиғласа, майли йиғласин,
Бобо йиғламасин набира учун.

Ахир бу ҳаёт-ку, яшаш, ўлим бор,
Ҳеч бир қалб ногаҳон чекмасин озор.
Ҳаётнинг завқига тўймасдан зор-зор,
Фарзандлар йиғласа, майли йиғласин,
Ота йиғламасин боласи учун.

Ўлимга тик боққан кексалар ҳаққи,
Енгиб енгилмаган нечалар ҳаққи,
Она алла айтган кечалар ҳаққи,
Фарзандлар йиғласа, майли йиғласин,
Она йиғламасин боласи учун.

* * *

Goh shunday kechmishlar bo'ladi boshda,
O'limning dahshati sabab ko'z yoshga.
Har qanday ofatga chidar odamzod,
Farzandlar yig'lasa, mayli yig'lasin,
Bobo yig'lamasin nabira uchun.

Axir bu hayot-ku, yashash, o'lim bor,
Hech bir qalb nogahon chekmasin ozor.
Hayotning zavqiga to'ymasdan zor-zor,
Farzandlar yig'lasa, mayli yig'lasin,
Ota yig'lamasin bolasi uchun.

O'limga tik boqqan keksalar haqqi,
Yengib yengilmagan nechalar haqqi,
Ona alla aytgan kechalar haqqi,
Farzandlar yig'lasa, mayli yig'lasin,
Ona yig'lamasin bolasi uchun.

* * *

«Сиз ҳам ўзни ...
суд қилсангиз
мана Минбар – марҳамат!
Усмон Азим!

Менга Усмон рухсат этинг,
Мен ҳам минбарга чиқай.
Мен ҳам айтай юрагимда –
Тўлиб кетган дардимни.
Сиз ўзинмас,
ўзгаларни
Суд қилибсиз ҳойнаҳой,
Мени ҳам баришлаган эдим Ҳақиқатга боримни.
Йўқ.
Мақтаниш учун эмас –
Мақтана ололмайман,
Қанча-қанча кўчаларни
Чангитганда одамлар,
Мана шу Сиз ардоқлаган
Диёнатни ҳақ қўйиб,
Эй, одамлар.
Жим бўлинг деб –
Айтолмаган жойим –
Бор.
Кейин ўша чанги чиққан кўчаларда
Тоқ қолиб,
Ўзимни мен
Неча минг бор
Ўзим –
Бўғизлаганман.
Ҳимматимга –

Бўй беролмай.
Эркимни қопга солиб,
Беркитиб виждон йўлин
Қайтадан излаганман...
Балким
кимдир куляпти -
Қиляпти деб тақлид,
Йўқ, мен Усмон
Сизни ўқиб,
Сизга келар ҳавасим.
Бу ҳеч ҳасад эмас дўстим,
Кетаман гоҳ тутақиб,
Шундай ёнимда эгик,
Жим
Турса ҳақиқат қалқиб...
Бор виждонни асрамоқлик,
Лаҳзалар даври келди,
Мен-чи тўлиб ҳануз ўзим -
Ўзимни-ахтараман.
Минбар
Эрк сўзларимни
Айтишга баҳонадир,
Ҳақиқатдан оқ йўл олиб -
Келажакка бораман.

* * *

«Siz ham o'zni ...
sud qilsangiz
mana Minbar – marhamat!
Usmon Azim!

Menga Usmon ruxsat eting,
Men ham minbarga chiqay.
Men ham aytay yuragimda -
To'lib ketgan dardimni.
Siz o'z nimas,
o'z galarni
Sud qilibsiz hoynahoy,
Meni ham bag'ishlagan edim Haqiqatga borimni.
Yo'q.
Maqtanish uchun emas -
Maqtana ololmayman,
Qancha-qancha ko'chalarni
Changitganda odamlar,
Mana shu Siz ardoqlagan
Diyonatni haq qo'yib,
Ey, odamlar.
Jim bo'ling deb —
Aytolmagan joyim —
Bor.
Keyin o'sha changi chiqqan ko'chalarda
Toq qolib,
O'zimni men
Necha ming bor
O'zim —
Bo'g'izlaganman.
Himmatimga —
Bo'y berolmay.

Erkimni qoqga solib,
Berkitib vijdon yo'lin
Qaytadan izlaganman...
Balkim
kimdir kulayapti -
Qilayapti deb taqlid?
Yo'q, men Usmon
Sizni o'qib,
Sizga kelar havasim.
Bu hech hasad emas do'stim,
Ketaman goh tutoqib,
Shunday yonimda egik,
Jim
Tursa haqiqat qalqib...
Bor vijdonni asramoqlik,
Lahzalar davri keldi,
Menchi to'lib hanuz o'zim -
O'zimni-axtaraman.
Minbar
Erk so'zlarimni
Aytishga bahonadir,
Haqiqatdan oq yo'l olib -
Kelajakka boraman.

ОТАМНИНГ АЙТГАНИ

Йўлдаман, арава олдида –
Қирчиллаб олдинда бораман.
Ортилган турмушнинг юклари
Тортади юганин, толаман...
Йўлдаман, арава олдинда –
Гичирлаб ортидан бораман.
Ортилган турмушнинг юкларин,
Уловин боламга бераман.
Йўлдаман... арава узоқда,
Текис йўл қўйнида кўраман.
Энди мен қоламан «тузоқ»да,
Арава манзилга бор омон...

OTAMNING AYTGANI

Yo'ldaman, arava oldida -
Qirchillab oldinda boraman.
Ortilgan turmushning yuklari
Tortadi yuganin, tolaman...
Yo'ldaman, arava oldinda -
G'ichirlab ortidan boraman.
Ortilgan turmushning yuklarin,
Ulovin bolamga beraman.
Yo'ldaman... arava uzoqda
Tekis yo'l qo'ynida ko'raman
Endi men qolaman «tuzoq»da,
Arava manzilga bor omon...

* * *

Яшаган умримдан бир қоя ясаб,
Шошилмай йўл олсам чўққилар сари.
Орқамдан қолади секин мўралаб,
Болалик йилларнинг жажжи сирлари.

Ҳар қадамда соғинч, ортга қарайман,
Олдинга боқаман, узоқ манзилим...
Баъван толиқаман, йўл тополмайман,
Сендан мадад сўраб мағрур ёшлигим.

Қалбимга кирибсан нур туйғу мисол,
Шам бўлиб ёнасан қоронғи тунда.
Яна одимлайман довулми, шамол
Писандмас мен учун, бу сирли дунё...

Эвгулик, муҳаббат ётгансан инъом,
Бораяпман йўлда пояма-поя...
Ёшлигим рози бўл, розиман сендан,
Берган муҳаббатинг – ўзи кифоя.

* * *

Yashagan umrimdan bir qoya yasab,
Shoshilmay yo'l olsam cho'qqilar sari.
Orqamdan qoladi sekin mo'ralab,
Bolalik yillarning jajji sirlari.

Har qadamda sog'inch, ortga qarayman,
Oldinga boqaman, uzoq manzilim...
Ba'zan toliqaman, yo'l topolmayman,
Sendan madad so'rar mag'rur yoshligim.

Qalbinga kiribsan nur tuyg'u misol,
Sham bo'lib yonasan qorong'i tunda.
Yana odimlayman dovulmi, shamol
Pisandmas men uchun, bu sirli dunyo...

Ezgulik, muhabbat etgansan in'om,
Borayapman yo'lda poyama-poya...
Yoshligim rozi bo'l, roziman sendan,
Bergan muhabbating - o'zi kifoya.

Майин аркалашар, болалик йиллар,
Орқада қолдилар, увоқлаб кетдик.
Шу сиқим тупроқни ушлаган қўллар
Энди меҳнат завқин қадрига етдик.
Бу ҳисга кўмакдош асл инсонни,
Бобожон, набиранг туғилган кунда,
Бирга бердинг унга қўшиб иймонни,
Эзгулик гуллари унди очунда.
Тоғ бошини оқ дерлар-оқарди бошинг.
Оғиркан ўтмишинг - оғир тумони...
Ғаразлар чекинди, танти бардошинг,
Бизга тортиқ өтди орни-виждонни.
Мендаги шижоат кимдан деб сўрсанг,
Сендан бор имонни-виждонни олдим.
Бобожон, сен билан юзма-юв бўлиб,
Қаршимда ўзимни мен кўриб қолдим.

* * *

Mayin erkalashar, bolalik yillar,
Orqada qoldilar, uzoqlab ketdik.
Shu siqim tuproqni ushlagan qo'llar -
Endi mehnat zavqin qadriga yetdik.
Bu hisga ko'makdosh asl insonni,
Bobojon, nabirang tug'ilgan kunda,
Birga berding unga qo'shib iymonni,
Ezgulik gullari undi ochunda.
Tog' boshin oq derlar-oqardi boshing.
Og'irkan o'tmishning - og'ir tumoni...
G'arazlar chekindi, tanti bardoshing,
Bizga tortiq etdi orni-vijdonni.
Mendagi shijoat kimdan deb so'rsang,
Sendan bor imonni-vijdonni oldim.
Bobojon, sen bilan yuzma-yuz bo'lib,
Qarshimda o'zimni men ko'rib qoldim.

* * *

Дим. Шеър йўқ, кайфият йўқ,
Димиқар ҳаво.
Боргим келаяпти тоғлар орасига,
Менга акс садо керак.
Тиниқ акс садо,
Овозимни ютиб юбораяпти,
Атрофимда чўзилган осойишталик.
Кенгликларга қарайман,
Бугун ҳўмрайиб,
Дарахтларга қулоқ тутаман.
Деворларга осаман аламдан қовоқ,
Нечун менинг янгроқ овозларимни,
Ютиб юбораяпсиз
Осойишталик...
Хуш кайфият осуда сузар ҳавода,
Юракларга кўчмоқда шеърий акс садо.
Дарахтлар нозланишиб овоз қайтарар,
Кўзларимга жойлашар -
Ер шари,
Само.

* * *

Dim. She'r yo'q, kayfiyat yo'q,
Dimiqar havo.
Borgim kelayapti tog'lar orasiga,
Menga aks sado kerak.
Tiniq aks sado,
Ovozimni yutib yuborayapti,
Atrofimda cho'zilgan osoyishtalik.
Kengliklarga qarayman,
Bugun ho'mrayib,
Daraxtlarga quloq tutaman.
Devorlarga osaman alamdand qovoq,
Nechun mening yangroq ovozlrimni,
Yutib yuborayapsiz
Osoyishtalik...
Xush kayfiyat osuda suzar havoda,
Yuraklarga ko'chmoqda she'riy aks sado.
Daraxtlar nozlanishib ovoz qaytarar,
Ko'zlarimga joylashar -
Yer shari,
Samo.

* * *

Қисқадир кундузлар, кечалар узоқ,
Болалар туш кўрар, Алпомиш йўқлар.
Оналар ҳам ҳайрон, оталар мудроқ,
Безавол, беғубор болалар ухлар.

Узоқ ўтмиш ёнар қизариб тунда,
Асов отларини эгарлар руҳлар.
Ўзларин алдашиб ёп-ёруғ кунда,
Во ажаб бемалол йигитлар ухлар.

Сирли дунё ётар ноъли уйқуда,
Нидо бердим: уйғон!
Ҳеч ким турмайди.
Ғафлат пардасини иргитиб тунда,
Ҳеч бўлмаса қизлар сапчиб турсайди.

О, фалак ўзимдан кетаман энди,
Мени бу фожиа юм-юм йиғлатар.
Туғ бўлиб, мана шу қоронғи тунни -
Бўлғуси оналар - қизлар уйғотар.

* * *

Qisqadir kunduzlar, kechalar uzoq,
Bolalar tush ko'rar, Alpomish yo'qlar.
Onalar ham hayron, otalar mudroq,
Bezavol, beg'ubor bolalar uxlar.

Uzoq o'tmish yonar qizarib tunda,
Asov otlarini egarlar ruhlar.
O'zlarin aldashib yop-yorug' kunda,
Vo ajab bermalol yigitlar uxlar.

Sirli dunyo yotar nozli uyquda,
Nido berdim: uyg'on!
Hech kim turmaydi.
G'aflat pardasini irg'itib tunda,
Hech bo'lmasa qizlar sapchib tursaydi.

O, falak o'zimdan ketaman endi,
Meni bu fojia yum-yum yig'latar.
Tug' bo'lib, mana shu qorong'i tunni -
Bo'lg'usi onalar - qizlar uyg'otar.

* * *

Энди мен осмонга қарайман,
Ҳис қилишим керак осмонни.
Ерга қараб юрганам етар,
Лекин баланд бўлиш осонми.

Ўзимда сезаман зўр қудрат,
Ҳаммани чорлайман-ҳаммани.
Ҳар кимда ҳам бўлсин шу журъат —
Авайлаши учун осмонни?

Ҳақиқат тик боқар кўзимга,
Менинг бошим баланд. Кўраман...
Ишон, ҳеч қайтмайман сўзимдан,
Ишон, вгилмасдан тураман.

* * *

Endi men osmonga qarayman,
His qilishim kerak osmonni.
Erga qarab yurganim etar,
Lekin baland bo'lish osonmi.

O'zimda sezaman zo'r qudrat,
Hammani chorlayman-hammani.
Har kimda ham bo'lsin shu jur'at -
Avaylashi uchun osmonni?

Haqiqat tik boqar ko'zimga,
Mening boshim baland. Ko'raman...
Ishon, hech qaytmayman so'zimdan,
Ishon, egilmasdan turaman.

ЁМОНЛИКНИНГ ТУГАШИ

Ҳаётда яшасанг, яшаган сари,
Ҳурмат қиладиган одаминг бўлса.
Таниш-нотанишлар инсофда бари -
Одамлар-одамга ўхшаб яшаса,
Бир хил қичқирмаса фирром хўрозлар,
Меҳнат ўғирлари тугаса тамом.
Ҳаммага ёзилса мақтов қоғозлар,
Алдаб яшамаса одамни одам.
Низолар тугаган бўларди шунда,
Жазолар тугаган бўларди шунда.
Турмалар ўрнида пайкаллар ўсиб,
Ер юзида ёмонлик ўларди шунда.

YOMONLIKNING TUGASHI

Hayotda yashasang, yashagan sari,
Hurmat qiladigan odaming bo'lsa.
Tanish-notanishlar insofda bari -
Odamlar-odamga o'xshab yashasa,
Bir xil qichqirmasa g'irrom xo'rozlar,
Mehnat o'g'irlari tugasa tamom.
Hammaga yozilsa maqtov qog'ozlar,
Aldab yashamasa odamni odam.
Nizolar tugagan bo'lardi shunda,
Jazolar tugagan bo'lardi shunda.
Turmalar o'rnida paykallar o'sib,
Er yuzida yomonlik o'lardi shunda.

ҚИШ ҲАМ ЎТАЯПТИ

Яланғоч дарахтлар оппоқ уйқуда,
Мана қиш-сочлари оқарган беҳад,
Кимлар ҳазиллашар, ёзади «Қор хат»
Мен эса қўмсайман баҳорни фақат.

Нурларни кўраман кенгликларда тенг,
Қуёш чиқиб келар-қишнинг қуёши.
Бугун ҳар қачондан чиройлидир кун,
Фақат сизлар йўқсиз умримнинг ёши.

Ёшлик кетиб борар бедор, ташвишли,
Қоп-қора сочлари оққа айланиб.
Қиш ҳам ўтаяпти қорлар олқиши,
Дейди: ёшлик қайтмас баҳорга тўлиб.

QISH HAM O'TAYAPTI

Yalang'och daraxtlar oppoq uyquda,
Mana qish-sochlari oqargan behad,
Kimlar hazillashar, yozadi «Qor xat»
Men esa qo'msayman bahorni faqat.

Nurlarni ko'raman kengliklarda teng,
Quyosh chiqib kelar-qishning quyoshi.
Bugun har qachondan chiroylidir kun,
Faqat sizlar yo'qsiz umrimning yoshi.

Yoshlik ketib borar bedor, tashvishli,
Qop-qora sochlari oqqa aylanib.
Qish ham o'tayapti qorlar olqishi,
Deydi: yoshlik qaytmas bahorga to'lib.

ОТАМГА

(Ориф ўгли Ниёз хотирасига)

Ҳеч ким сени эсламай қўйса,
Унутсалар борми-йўқлигинг.
Бўлар эдинг кимлардан хафа,
Кимларни сен унута қолдинг.

Ўғил-қизинг турса олдингда,
Қариндошлар бўлса бир тараф/
Эсламадинг уларни нега?
Эслагайсан кимни? Айт, ё раб!

«Жоним» деган бир оғиз сўзни,
Фарзандларинг айтиши мумкин.
Сен қўмсадинг майин овозни,
Кўтаролмай юрагинг юкин.

Балки шунга хотиранг сўнган,
Ахтарасан ўзга оламни.
Ҳаётингда сени тушунган -
Излаяпсан ўша одамни...

Оғир кечди яшаш довонинг,
Ташлаб кетдинг эртарақ бизни.
Ярим йўлда қолди карвонинг -
Айтолмадик сен кутган сўзни...

OTAMGA

(Orif o'g'li Niyoz xotirasiga)

Hech kim seni eslamay qo'ysa,
Unutsalar bormi-yo'qliging.
Bo'lar eding kimlardan xafa,
Kimlarni sen unuta qolding.

O'g'il-qizing tursa oldingda,
Qarindoshlar bo'lsa bir taraf.
Eslamading ularni nega?
Eslagaysan kimni? Ayt, yo rab!

«Jonim» degan bir og'iz so'zni,
Farzandlaring aytishi mumkin.
Sen qo'msading mayin ovozni,
Ko'tarolmay yuraging yukin.

Balki shunga xotirang so'ngan,
Axtarasan o'zga olamni.
Hayotingda seni tushungan -
Izlayapsan o'sha odamni...

Og'ir kechdi yashash dovoning,
Tashlab ketding ertaroq bizni.
Yarim yo'lda qoldi karvoning -
Aytolmadik sen kutgan so'zni...

МАНЗАРА

Торларда қаддини ростлади қуёш,
Пахмоқ булутларнинг этаги куяр.
Айни тонг, турфа ранг, камалак мисол,
Ол тусда товланар қирмизи диёр.

Оқшом тушаяпти, уфқда қуёш
Ҳориган бошини заминга қўяр.
Замин ва қуёшнинг ҳароратидан,
Ол тусда товланар қирмизи диёр.

MANZARA

Tog'larda qaddini rostladi quyosh,
Paxmoq bulutlarning etagi kuyar.
Ayni tong, turfa rang, kamalak misol,
Ol tusda tovlanar qirmizi diyor.

Oqshom tushayapti, ufqda quyosh
Horigan boshini zaminga qo'yar.
Zamin va quyoshning haroratidan,
Ol tusda tovlanar qirmizi diyor.

Дардингни ўйлашга дардим етмади,
 Осмон, осмон бўлиб беролмади дош.
 Ер силкинди э воҳ, оҳим ўтмади -
 Ёлгонлар қичқирди, чинлар эгди бош.
 Она замин нега силкидинг бедор,
 Менинг юрагимни силкитганлар бор.

Тоғлар ўсиб чиққан замонлар қайтмас,
 Яхшилар келмоқда... ёмонлар қайтмас.
 Доғлар улкан эди, улкандан улкан,
 Энди ёмон-ёмон замонлар қайтмас.
 Она замин нега силкидинг бедор,
 Менинг юрагимни силкитганлар бор.

Бойлар олдин бўлган. Ҳозир ҳам бордир,
 Зорлар олдин бўлган. Ҳозир ҳам зордир.
 Сенинг аҳсонингга тўймадим Дунё,
 Хорлар олдин бўлган. Ҳозир ҳам хордир.
 Она замин нега силкидинг бедор,
 Менинг юрагимни силкитганлар бор.

Етти ёшингдан то етмиш ёшгача
 Жони бор, жони йўқ, тоғу-тошгача,
 Ким нима азобда, бу сўнгги ўкинч -
 Дардларим тўкилди, дардларингни тўқ.
 Она замин бедор силкинма зинҳор,
 Менинг юрагимни силкитганлар бор.

* * *

Dardingni o'ylashga dardim etmadi,
Osmon, osmon bo'lib berolmadi dosh.
Er silkindi e voh, ohim o'tmadi -
Yolg'onlar qichqirdi, chinlar egdi bosh.
Ona zamin nega silkinding bedor,
Mening yuragimni silkitganlar bor.

Tog'lar o'sib chiqqan zamonlar qaytmas,
Yaxshilar kelmoqda... yomonlar qaytmas.
Dog'lar ulkan edi, ulkandan ulkan,
Endi yomon-yomon zamonlar qaytmas.
Ona zamin nega silkinding bedor,
Mening yuragimni silkitganlar bor.

Boylar oldin bo'lgan. Hozir ham bordir,
Zorlar oldin bo'lgan. Hozir ham zordir.
Sening ehsoningga to'ymadim Dunyo,
Xorlar oldin bo'lgan. Hozir ham xordir.
Ona zamin nega silkinding bedor,
Mening yuragimni silkitganlar bor.

Yetti yoshingdan to etmish yoshgacha
Joni bor, joni yo'q, tog'u-toshgacha,
Kim nima azobda, bu so'nggi o'kinch -
Dardlarim to'kildi, dardlaringni to'k.
Ona zamin bedor silkinma zinhor,
Mening yuragimni silkitganlar bor.

* * *

Юз ўғирдим барча ёлғондан,
Яшинмачоқ ўйнамадим, йўқ.
Севдим сени юракдан-жондан,
Бу йўлларда фирромлигим йўқ.

Неки кўрсам номин атадим -
Оқни-оқ деб, қарони-қаро.
Ноҳақ йўлда панд еган пайтим
Сен жонимга кирдинг-ку аро.

Ватан сенсан, муҳаббат сенсан,
Кучоғингда яйрайди таним.
Яшаяпман муҳаббатингдан -
Жоним сенга фидо — Ватаним.

* * *

Yuz o'girdim barcha yolg'ondan,
Yashinmahoq o'ynamadim, yo'q.
Sevdim seni yurakdan-jondan,
Bu yo'llarda g'irromligim yo'q.

Neki ko'rsam nomin atadim -
Oqni-oq deb, qaroni-qaro.
Nohaq yo'lda pand egan paytim -
Sen jonimga kirding-ku aro.

Vatan sensan, muhabbat sensan,
Quchog'ingda yayraydi tanim.
Yashayapman muhabbatingdan -
Jonim senga fido — Vatanim.

* * *

Ёлғонни-ёлғон, деб, ҳақни-ҳақ деган,
Одамлар олдида қиламан таъзим.
Бурчини ўйламай-виждонин еган,
Кимсалар турқиға нафратим ёзим.

Севинчларим талай, нафратларим ҳам,
Даврим билан бирга ташлайман қадам...
Нечун қўлларингда қўрғошин қалам?!
Кўзинг каттароқ оч, муҳтарам одам.

Бу ёлғиз дунёнинг тизгини сенда,
Тарих чархпалагин тутди боболар.
Берди қўлларингга, айлантир кунда -
Тинчликни аср деб, тинчлик, болалар!

Тенгдошим: шу жажжи болалар ҳаққи,
Юртнинг истиқболи, келажак ҳаққи,
Улуғ Ватан ҳаққи, оналар ҳаққи,
Виждоннинг олдида инсонлик ҳаққи:

Ёлғонни-ёлғон де, ҳақни-ҳақ дегин,
Шу қутлуғ қадамдан бошланар софлик.
Буюк келажак бор, келажак эркин -
Белгилаб беради, мана шу ростлик.

* * *

Yolg'onni-yolg'on deb, haqni-haq degan,
Odamlar oldida qilaman ta'zim.
Burchini o'ylamay-vijdonin egan,
Kimsalar turqiga nafratim yozdim.

Sevinchlarim talay, nafratlarim ham,
Davrim bilan birga tashlayman qadam...
Nechun qo'llaringda qo'rg'oshin qalam?!
Ko'zing kattaroq och, muhtaram odam.

Bu yolg'iz dunyoning tizgini senda,
Tarix charxpalagin tutdi bobolar.
Berdi qo'llaringga, aylantir kunda -
Tinchlikni asr deb, tinchlik, bolalar!

Tengdoshim: shu jaji bolalar haqqi,
Yurtning istiqboli, kelajak haqqi,
Ulug' Vatan haqqi, onalar haqqi,
Vijdonning oldida insonlik haqqi:

Yolg'onni-yolg'on de, haqni-haq degin,
Shu qutlug' qadamdan boshlanar soflik.
Buyuk kelajak bor, kelajak erkin -
Belgilab beradi, mana shu rostlik.

* * *

Бир вақтлари баҳорга
Ошиқ бўлиб яшардим,
Энди қишга мафтунман,
Оқарди қора сочим.

Кенгликларга қарайман
Оппоқ қорга бурканган,
Ҳа, қорларнинг рангидан
Қайта тошдим, яшардим.

Тонгни севдим, оқ тонгни,
Унга меҳрим ўралган.
Эътиқодим, бор умрим,
Борлангандир оқ рангга.

О, ҳақиқат мен сени
Оқ рангларда кўраман,
Ўзинг оқсан-ўзинг тоқ,
Сени севмай бўларми...

* * *

Bir vaqtlari bahorga
Oshiq bo'lib yashardim,
Endi qishga maftunman,
Oqardi qora sochim.

Kengliklarga qarayman
Oppoq qorga burkangan,
Ha, qorlarning rangidan
Qayta toshdim, yashardim.

Tongni sevdim, oq tongni,
Unga mehrim o'ralgan.
E'tiqodim, bor umrim,
Bog'langandir oq rangga.

O, haqiqat men seni
Oq ranglarda ko'raman,
O'zing oqsan-o'zing toq,
Seni sevmay bo'larmi...

* * *

Қаллоб замонлар ўтди,
Жаллод замонлар ўтди,
Жоҳил замонлар қолиб
Аҳил замонлар ўтди...
Шунда ҳам ой бор эди,
Худо доим ёр эди.
Миндик ёмон отларни,
Қувдик ёлгон-ётларни.
Йўлда ҳориб чарчадик —
Кутдик улуғ зотларни...
Улуғ зотлар бор эди,
Худо доим ёр эди.
Тугамади бу ўйин,
Тугамайди бу қийин.
Э, воҳ деди-утишди,
Уяр сўраб кетишди.
...Келганлар такрор эди,
Ёлғиз Оллоҳ ёр эди.

* * *

Qallob zamonlar o'tdi,
Jallod zamonlar o'tdi,
Johil zamonlar qolib
Ahil zamonlar o'tdi...
Shunda ham oy bor edi,
Xudo doim yor edi.
Mindik yomon otlarni,
Quvdik yolg'on-yotlarni.
Yo'lda horib charchadik –
Kutdik ulug' zotlarni...
Ulug' zotlar bor edi,
Xudo doim yor edi.
Tugamadi bu o'yin,
Tugamaydi bu qiyin,
E, voh dedi-o'tishdi,
Uzr so'rab ketishdi.
...Kelganlar takror edi,
Yolg'iz Oллоh yor edi.

* * *

Мен бир шеър ёзайин,
Шеърдай бўлсин у,
Одамлар қалбига
Нурдай тўлсин у,
Хиргойи қилганда,
Йигит ё қизлар,
Чарақлаб турсин у,
Дурдай бўлсин у.
Жажжи чақалоқлар
Йиғиси каби,
Севишганлар севгиси —
Кулгуси каби,
Оналарнинг беғубор
Дуоси бўлсин,
Оталарнинг мангу
Нидоси бўлсин...
Далалар кўринсин...

* * *

Men bir she'r yozayin,
She'rday bo'lsin u,
Odamlar qalbiga
Nurday to'lsin u,
Xirgoyi qilganda,
Yigit yo qizlar,
Charaqlab tursin u,
Durday bo'lsin u.
Jajji chaqaloqlar
Yig'isi kabi -
Sevishganlar sevgisi -
Kulgusi kabi,
Onalarning beg'ubor
Duosi bo'lsin,
Otalarning mangu
Nidosi bo'lsin...
Dalalar ko'rinsin...

* * *

Рўзғор қилиш қийин бўлди,
Қийин бўлди,
Кимларгадир ўйин бўлди,
Ўйин бўлди.
Қаловини қалаганлар -
Қор ёғдирар,
Ёмғирларда қолиб кимлар -
Ўйин бўлди...
Хуржун деган тўлмайдиган
Мато экан,
Елкангдан ҳеч тушмайдиган
Сато экан.
Чимилдиқдан бу қисматни
Олган эдим,
Майда ташвиш катта ташвиш
Ато экан.
Ўйлаб, ўйлаб ўйларимни
Ўлдираман,
Ҳеч бўлмаса ширин гапга
Тўйдираман.

* * *

Ro'zg'or qilish qiyin bo'ldi,
Qiyin bo'ldi,
Kimlargadir o'yin bo'ldi,
O'yin bo'ldi.
Qalovini qalaganlar -
Qor yog'dirar,
Yomg'irlarda qolib kimlar -
O'yin bo'ldi...
Xurjun degan to'lmaydigan
Mato ekan,
Yelkangdan hech tushmaydigan
Sato ekan.
Chimildiqdan bu qismatni
Olgan edim,
Mayda tashvish katta tashvish
Ato ekan.
O'ylab, o'ylab o'ylarimni
O'ldiraman,
Hech bo'lmasa shirin gapga
To'ydiraman.

* * *

Йўлимдан ўзимча йўл ахтараман,
Элик ёш бу ахир, залворли бу ёш.
Ўзимнинг устимдан ўзим куламан,
Афсус, афсус дейман, фойдасиз кўз ёш.

Қанча сувлар оқди, кетмоқда оқиб,
Кечмишни ўйлайман, такрор кечмишни.
Менинг ҳаётимда липиллаб ёниб,
Из қолдирган ёниқ ёшлик ўтмишни.

Вақт шу қадар ҳакам, вақт шу қадар куч,
Кўзга кўринмайди ушлолмайсан ҳам.
Келиштириб шундай олар экан ўч,
Кексайганин билмай қоларкан одам.

* * *

Yo'limdan o'zimcha yo'l axtaraman,
Ellik yosh bu axir, zalvorli bu yosh.
O'zimning ustimdan o'zim kulaman,
Afsus, afsus deyman, foydasiz ko'z yosh.

Qancha suvlar oqdi, ketmoqda oqib,
Kechmishni o'ylayman, takror kechmishni.
Mening hayotimda lipillab yonib,
Iz qoldirgan yoniq yoshlik-o'tmishni.

Vaqt shu qadar hakam, vaqt shu qadar kuch,
Ko'zga ko'rinmaydi ushlolmaysan ham.
Kelishtirib shunday olar ekan o'ch,
Keksayganin bilmay qolarkan odam.

* * *

...Минг тўққиз юз аллигинчи йил -
Хужжат бўйича шундай ёзилган.
Баҳорми,
Ёзми,
Қишми номаълум,
Борман-ку ҳаётда,
Тирилганим маълум.
Сўнгра — ўйин, чопқилашлар,
Мактаб даргоҳи...
Ҳамманинг бошидан кечган савдолар.
Айтиб бероламан
Ҳатто бирма-бир,
Қачон омад келган,
Қачон кетганин.
Топганим шеърини,
Борим ҳалоллик,
Биламан дунёга устун бўлмайман,
Лекин қалбда бор
Зўр хайрихоҳлик
Одамларга яхшилиқни
Бўлсам қайтадан.
Дунёнинг қайси бир бурчагида,
Хўрликни өшитиб,
Вужудим титраб,
Тўхтагандай бўлади.
Томиримда қон.
Баъзан кўз ўнгимда
Разилликни,
Тухматни кўрсам,
Бир сония орзуларим ўлиб
Танамдан чиқади жон...

Кейин-чи ўзимни қўлга оламан,
Туфлайман
Тўнг башарасига.
Гоҳида уларга кучим етмай,
Ўзимни гуноҳкор санаб,
Киргим келади ернинг остига...
Ҳукм шундай,
Виждон ҳукми,
Ҳали кўп бор сўроқ бераман
Мен ва сен қилган гуноҳлар учун,
То қиёматгача рости-ростига...
Нуқта қўёлмайман сўзимга,
Ўзингдан ҳам узоқ сўзларим.
Тугамайди,
Талашиб-тортишаман
Ўзлигим учун,
Ўлмайман.
Ичимдаги нафсимни
Ўлдираман аввал,
Кейин нуқта қўяман,
Таржимаи ҳолимга
Мукамал...

* * *

...Ming to'qqiz yuz elliginchi yil -
Hujjat bo'yicha shunday yozilgan.
Bahormi,
Yozmi,
Qishmi noma'lum,
Borman-ku hayotda,
Tirilganim ma'lum.
So'ngra — o'yin, chopqilashlar,
Maktab dargohi...
Hammaning boshidan kechgan savdolar.
Aytib berolaman
Hatto birma-bir,
Qachon omad kelgan,
Qachon ketganin.
Topganim she'riyat,
Borim halollik,
Bilaman dunyoga ustun bo'lmayman,
Lekin qalbdan bor
Zo'r xayrixohlik
Odamlarga yaxshilikni
Bo'lsam qaytadan.
Dunyoning qaysi bir burchagida,
Xo'rlikni eshitib,
Vujudim titrab,
To'xtaganday bo'ladi.
Tomirimda qon.
Ba'zan ko'z o'ngimda
Razillikni,
Tuxmatni ko'rsam,
Bir soniya orzularim o'lib
Tanamdan chiqadi jon...

Keyinchi o'zimni qo'lga olaman,
Tufalayman
To'ng basharasiga.
Gohida ularga kuchim etmay,
O'zimni gunohkor sanab
Kirgim keladi erning ostiga...
Hukm shunday,
Vijdon hukmi,
Hali ko'p bor so'roq beraman.
Men va sen qilgan gunohlar uchun,
To qiyomatgacha rosti-rostiga...
Nuqta qo'yolmayman so'zimga,
O'zingdan ham uzoq so'zlarim.
Tugamaydi,
Talashib-tortishaman
O'zligim uchun,
O'lmayman.
Ichimdagi nafsimni
O'ldiraman avval,
Keyin nuqta qo'yaman,
Tarjimai holimga
Mukammal...

* * *

Меҳру муҳаббатга қай кун кетди дарэ,
Қай кун одамларда йўқолди ишонч.
Бугун мен сизлардан қилибман араз,
Замонга... мослашган бандалардан қоч.

О, менинг туйғуга тўлган ёшлигим,
Муғомбирлик мендан йироқ бир олам.
Мен давр руҳига мослашолмадим,
Нечун тарк этмадим замонани ҳам.

Кузатувчи бўлиш жонимга тегди,
Вужудим қартайди давога муҳтож.
Нега жим турибсан, жигарим, энди
Бетараф бўлмагил, кўзларингни оч...

* * *

Mehru muhabbatga qay kun ketdi darz,
Qay kun odamlarda yo'qoldi ishonch.
Bugun men sizlardan qilibman araz,
Zamonga... moslashgan bandalardan qoch.

O, mening tuyg'uga to'lgan yoshligim,
Mug'ombirlik mendan yiroq bir olam.
Men davr ruhiga moslasholmadim,
Nechun tark etmadim zamonani ham.

Kuzatuvchi bo'lish jonimga tegdi,
Vujudim qartaydi davoga muhtoj.
Nega jim turibsan, jigarim, endi
Betaraf bo'lmagil, ko'zlaringni och...

* * *

Эркалаб буйнингга қўлимни қўйдим,
Юзингга юзимни босдим эркалаб.
Кўзингдан қўзларим бўсага тўйди,
Сени деб яшадим ва сени асраб.

Лолалар оқарди рангидан тониб,
Далалар тусини ўзгартирди бот.
Бутун вужудимдан энтикиб, ёниб –
Бағрим-ботинимда ёнди муҳаббат.

Шунчалар ширинкан бу лаззат, ё раб,
Ўзимдан кетдим мен бу оқшом сайли...
Ёнингга ётибман, осмонга қараб,
Бунчалар осуда-осмон чиройли...

* * *

Erkalab bo'yningga qo'limni qo'ydim,
Yuzingga yuzimni bosdim erkalab.
Ko'zingdan ko'zlarim bo'saga to'ydi,
Seni deb yashadim va seni asrab.

Lolalar oqardi rangidan tonib,
Dalalar tusini o'zgartirdi bot.
Butun vujudimdan entikib, yonib -
Bag'rim-botinimda yondi muhabbat.

Shunchalar shirinkan bu lazzat, yo rab,
O'zimdanda ketdim men bu oqshom sayli...
Yoningda yotibman, osmonga qarab,
Bunchalar osuda-osmon chiroyli...

АРТИСТ ДЎСТИМ

Минбарни беҳуда яғалламанг сиз,
Экранда кўрсатманг — ўзингиз голиб.
Бизнинг асабларга тегиб кетдингиз,
Сиздан чиқмас асло — Ҳамза Умаров.

Дейман: буюкларга омад тилангиз,
Сиз Нозим Ҳикматни ўқинг қайтадан.
Товаламачи дўстим — йиғиштиринг тез,
Бўлмаса айбингиз ҳозир айтаман...

Юз хотир бор бўлса сиёда азалдан,
Рост ёкан қутулиш қийин-ёмондан,
Йўл топиб экранда бўлманг кўп кўз-кўз.
Ахир кутиб қолди истеъдодлар сўз...

ARTIST DO'STIM

Minbarni behuda egallamang siz,
Ektranda ko'rsatmang — o'zingiz g'olib.
Bizning asablarga tegib ketdingiz,
Sizdan chiqmas aslo — Hamza Umarov.

Deyman: buyuklarga omad tilangiz,
Siz Nozim Hikmatni o'qing qaytadan.
Tovalamachi do'stim — yig'ishtiring tez,
Bo'lmasa aybingiz hozir aytaman...

Yuz xotir bor bo'lsa sizda azaldan,
Rost ekan qutulish qiyin-yomondan,
Yo'l topib ektranda bo'lmang ko'p ko'z-ko'z.
Axir kutib qoldi iste'dodlar so'z...

* * *

Нима ўтган бўлса, мендан ҳам ўтди,
Нима ўтган бўлса, сендан ҳам ўтди.
Фисқу фасод билсанг ҳақликка душман,
Гап сўқишиб юрган тарафлар ўтди.

Ҳаёт мунозара, тортишув экан,
Ким ҳақу, ким ноҳақ олишув экан,
Ўртада чин-ёлгон қоришув экан,
Кўплар бир-бирига бетараф ўтди.

Эй, дунё, мен сени ёмон демадим,
Бағрингда яхшилар омон демадим,
Неки бўлган бўлса тамом демадим,
Нор калла, хор калла балолар ўтди.

Ёлгонлар яшаса, оҳ, қандай чидай,
Виждонлар қақшаса, оҳ, қандай чидай,
Али, бу дунёни севиб-севолмай
Оҳ, дедим, воҳ дедим, дунёндан кетдим.

* * *

Nima o'tgan bo'lsa, mendan ham o'tdi,
Nima o'tgan bo'lsa, sendan ham o'tdi.
Fisqu fasod bilsang haqlikka dushman,
Gap so'qishib yurgan taraflar o'tdi.

Hayot munozara, tortishuv ekan,
Kim haqu, kim nohaq olishuv ekan,
O'rtada chin-yolg'on qorishuv ekan,
Ko'plar bir-biriga betaraf o'tdi.

Ey, dunyo, men seni yomon demadim,
Bag'ringda yaxshilar omon demadim,
Neki bo'lgan bo'lsa tamom demadim,
Nor kalla, xor kalla balolar o'tdi.

Yolg'onlar yashasa, oh, qanday chiday,
Vijdonlar qaqshasa, oh, qanday chiday,
Ali, bu dunyongni sevib-sevolmay
Oh, dedim, voh dedim, dunyongdan ketdim.

* * *

Кўлимда арра йўқ,
Болта йўқ,
Қинғир жойларингни
Қирқишга...
Лекин оғзим тўла
Тупурук,
Кўчамдан ўтмагин
Қумурсқа.

* * *

Бир куни кўнглимни,
Кўйиб юбордим.
Узун-узун кўчалар бўйлаб.
Орқасидан кузатдим секин.
Таассуфлар бўлсинким,
Кўнглим қурғур,
Эркаланиб-эркаланиб,
Тавоф қила бошлади —
Гўзалларни.
Кейин эса тиз чўкиб.
Гул тутқазди нотаниш гўзалга,
Чидолмадим, дод дедим,
Чақриб олдим-у
Қамаб қўйдим хужрасига.
Ахир унга аталмаган эди,
Бу гўзал гуллар...

* * *

Qo'limda arra yo'q,
Bolta yo'q,
Qing'ir joylaringni
Qirqishga...
Lekin og'zim to'la
Tupuruk,
Ko'chamdan o'tmagin
Qumursqa.

* * *

Bir kuni ko'nglimni,
Qo'yib yubordim.
Uzun-uzun ko'chalar bo'ylab.
Orqasidan kuzatdim sekin.
Taassuflar bo'lsinkim,
Ko'nglim qurg'ur,
Erkalanib-erkalanib,
Tavof qila boshladi —
Go'zallarni.
Keyin esa tiz cho'kib.
Gul tutqazdi notanish go'zalga,
Chidolmadim, dod dedim,
Chaqirib oldim-u
Qamab qo'ydim xujrasiga.
Axir unga atalmagan edi,
Bu go'zal gullar...

* * *

Сўқмоқ йўлда кеч оқшом маҳал,
Йигит борар қизнинг изидан.
Ўтиб кетмас ё қола олмас,
Қочирмайди қизни кўзидан.

Қиз нигоҳи... олдинга шошар,
Қадамини тезлар энтикиб.
Орқасига қаролмас, ночор,
Кетаяпти йўлга термулиб.

Йигит ҳам лол, сўзсиз бу олам,
Юрак қурғур типирлар тўлиб.
Бир калима сўз айт, эй, одам,
Сукутни буз, ҳарна сен кулиб.

Узоқ кетди улар шу зайли,
Вужуд таранг, қулоқлар гаранг.
Қиз ўйларди: «Гапирсин майли»
Йигит ўйлар: «Қоматга қаранг».

Садо чиқмас. Нафас олишар,
Дукур-дукур юракларда сўз,
Қиз кўксини чангаллаб ушлар,
Йигит кўрмас, эҳ буни, ғассиз.
Йигит борар қизнинг изидан...

* * *

So'qmoq yo'lda kech oqshom mahal,
Yigit borar qizning izidan.
O'tib ketmas yo qola olmas,
Qochirmaydi qizni ko'zidan.

Qiz nigohi... oldinga shoshar,
Qadamini tezlar entikib.
Orqasiga qarolmas, nochor,
Ketayapti yo'lga termulib.

Yigit ham lol, so'zsiz bu olam,
Yurak qurg'ur tipirlar to'lib.
Bir kalima so'z ayt, ey, odam,
Sukutni buz, hama sen kulib.

Uzoq ketdi ular shu zayli,
Vujud tarang, quloqlar garang.
Qiz o'ylardi: «Gapirsin mayli»
Yigit o'ylar: «Qomatga qarang».

Sado chiqmas. Nafas olishar,
Dukur-dukur yuraklarda so'z,
Qiz ko'ksini changallab ushlar,
Yigit ko'rmas, eh buni, essiz.
Yigit borar qizning izidan...

ОЙГА

Сен осмонда, мен ерда,
Интиқ-интиқ яшаймиэ.
Келиб ҳолимни сўр-да,
Биз нега ярим оймиэ.

Ҳасратлар чекмадим йўқ,
Нидолар бермадим йўқ.
Осмонда бўлсанг бўлгин,
Кўриб турсам кўнглим тўқ.

Ҳисларим учиб кетди,
Самода сузиб кетди.
Ярим ой ҳам тўлишиб,
Жамолини беркитди.

Неча кунга тарк этдинг,
Ташлаб қайларга кетдинг,
Соғиниб толдим, билсанг,
Осмоним чароғ этгин.

Ҳасратлар эмас, бу, йўқ,
Нидолар эмас, бу, йўқ.
Осмонда бўлсанг бўлгин,
Кўриб турсам кўнглим тўқ.

OYGA

Sen osmonda, men yerda,
Intiq-intiq yashaymiz.
Kelib holimni so'r-da,
Biz nega yarim oyrniz.

Hasratlar chekmadim yo'q,
Nidolar bermadim yo'q.
Osmonda bo'lsang bo'lg'in,
Ko'rib tursam ko'nglim to'q.

Hislarim uchib ketdi,
Samoda suzib ketdi.
Yarim oy ham to'lishib,
Jamolini berkitdi.

Necha kunga tark etding,
Tashlab qaylarga ketding,
Sog'inib toldim, bilsang,
Osmonim charog' etgin.

Hasratlar emas, bu, yo'q,
Nidolar emas, bu, yo'q.
Osmonda bo'lsang bo'lg'in,
Ko'rib tursam ko'nglim to'q.

* * *

Гуноҳимни айт, деб, кўзингга боқдим,
Боқишингни ўзи гуноҳ-ку дединг.
Уэр сўраб, сендан жазо бер дедим,
Сўз айтмайман, сенга жазо шу дединг.

Айбимни билолмай ўртандим яна,
Кўзларингга боқдим тўйиб, термулиб.
Елғон дединг, э воҳ, боқишинг нега,
Алдаяпти жоду кўзларинг дединг.

Сендан жазо истаб, сўрайвераман,
Гуноҳимни тўплаб, бўйнимга қўйдинг.
Айбим – қарашларим қарайвераман,
Жаволаринг эса тўғридир сенинг.

* * *

Gunohimni ayt, deb, ko'zingga boqdim,
Boqishingni o'zi gunoh-ku deding.
Uzr so'rab, sendan jazo ber dedim,
So'z aytmayman, senga jazo shu deding.

Aybimni bilolmay o'rtandim yana,
Ko'zlaringga boqdim to'yib, termulib.
Yolg'on deding, e voh, boqishing nega,
Aldayapti jodu ko'zlaring deding.

Sendan jazo istab, so'rayveraman,
Gunohimni to'plab, bo'ynimga qo'yding.
Aybim – qarashlarim qarayveraman,
Jazolaring esa to'g'ridir sening.

ОРОМГА

Сени тушунмаса ўртанма синглим,
Билсанг юракларда тугунчалар бор.
Чораси оғирмас... истаса кўнглинг,
Бир кун ўрин топар қалбингда баҳор.

Кўй, ўксиниш бекор, қилмагин араз,
Дафтарингга ёзгин дил суронларинг.
Сени тушунади шу парча қоғоз,
Ёзгин сидқидилдан хотираларинг...

OROMGA

Seni tushunmasa o'rtanma singlim,
Bilsang yuraklarda tugunchalar bor.
Chorasi og'irmas... istasa ko'ngling,
Bir kun o'rin topar qalbingda bahor.

Qo'y, o'ksinish bekor, qilmagin araz,
Daftaringga yozgin dil suronlaring.
Seni tushunadi shu parcha qog'oz,
Yozgin sidqidildan xotiralaring...

* * *

I

Хом ўрилган арпа,
Пишмаган жавдар.
Қотиб қолган сув...
Бу даҳшат, қўрқув,
Ёш кетганларнинг
Умрига ўхшар.

II

Етилган арпа
Пишган жавдарлар,
Оқаётган сув,
Ёнаётган олов,
Етук одамлар
Умрига ўхшар.

III

Уюлган хирмон,
Яланғоч оч от ...
Бу қўшиқ, ҳаёт,
Ийғайди баёт,
Келиб кетганлар
Умрига ўхшар...

* * *

I

Xom o'rilgan arpa,
Pishmagan javdar.
Qotib qolgan suv...
Bu dahshat, qo'rquv,
Yosh ketganlarning
Umriga o'xshar.

II

Yetilgan arpa
Pishgan javdarlar,
Oqayotgan suv,
Yonayotgan olov -
Yetuk odamlar
Umriga o'xshar.

III

Uyulgan xirmon,
Yalang'och och ot ...
Bu qo'shiq, hayot,
Yig'laydi bayot,
Kelib ketganlar
Umriga o'xshar...

* * *

Сой буйида сариқ тош,
Сойдай суйиб ётибди.
Қайдан келдинг, вй сирдош,
Сойчи сирин сотибди...

Суйим, суйим, суйганим,
Сумбуласин кўрайин.
Сойда қолган сиримни,
Сариқ тошдан сўрайин.

Сой буйида сариқ тош,
Суйласа-суйламаса,
Мен неларга вгай бош,
Сой сиримни суймаса.

Сойдай суйдим бу оқшом,
Сойдай туйдим бу оқшом.
Сирларимни суйлолмай,
Сойдай буйдим бу оқшом.

* * *

Soy bo'yida sariq tosh,
Soyday so'lib yotibdi.
Qaydan kelding, ey sirdosh,
Soychi sirin sotibdi...

So'lim, so'lim, suyganim,
Sumbulasin ko'rayin.
Soyda qolgan sirimni,
Sariq toshdan so'rayin.

Soy bo'yida sariq tosh,
So'ylasa-so'ylamasa,
Men nelarga egay bosh,
Soy sirimni suymasa.

Soyday so'ldim bu oqshom,
Soyday to'ldim bu oqshom.
Sirlatimni so'ylolmay,
Soyday bo'ldim bu oqshom.

* * *

Ёлғизим йўлимда йўлиқдинг,
Кўнглимни ол, дединг, қул тутдинг,
Кўниккан кунимга кўникдинг,
Ўзинг бўлгин ағам, Бегойим.

Бегим, дединг, Беклар ичида,
Ўзинг, дединг, «Куб»лар ичида.
Чор-ночорман кеклар ичида,
Ўзинг бўлгин ағам, Бегойим.

Бошпана бўлдим-ку бошингда,
Парвона бўлдим-ку қошингда,
Мана, келдим элик ёшимда,
Ўзинг бўлдинг ағам, Бегойим.

* * *

Yolg'izim yo'limda yo'liqding,
Ko'nglimni ol, deding, qul tutding,
Ko'nikkan kunimga ko'nikding,
O'zing bo'lgin egam, Begoyim.

Begim, deding, Beklar ichida,
O'zing, deding, «Qub»lar ichida.
Chor-nochorman keklar ichida,
O'zing bo'lgin egam, Begoyim.

Boshpana bo'ldim-ku boshingda,
Parvona bo'ldim-ku qoshingda,
Mana, keldim ellik yoshimda,
O'zing bo'lding egam, Begoyim.

* * *

Меҳринг кириб келди бедор қалбимга,
Ўтган ўттиз йилдан бошқа-бошқача.
Шериксан энди сен барча сиримга,
Шунча кутдингми ё, эллик ёшгача...

Бу авжлар асли-ёшлик ҳиди эмас,
Ўтган кунларимга назар соламан.
Умримнинг ярми билсанг орзу-ҳавас,
Ярмини афсуслар ағаллаб олган.

Менинг назаримни назарингга ол,
Қадр кечасини сенсан инъоми.
Илтижо қиламан худодан иқбол,
Иноят айлади менга дунёни...
Қалбимга кирибсан меҳрибон аркам.

* * *

Mehring kirib keldi bedor qalbimga,
O'tgan o'ttiz yildan boshqa-boshqacha.
Sheriksan endi sen barcha sirimga,
Shuncha kutdingmi yo, ellik yoshgacha...

Bu avjlar asli-yoshlik hidi emas,
O'tgan kunlarimga nazar solaman.
Umrinning yarmi bilsang orzu-havas,
Yarmini afsuslar egallab olgan.

Mening nazarimni nazaringga ol,
Qadr kechasini sensan in'omi.
Iltijo qilaman xudodan iqbol,
Inoyat ayladi menga dunyoni...
Qalbimga kiribsan mehribon erkam.

* * *

Ойдай бир йигит кириб,
Бойдай чиқди.
Бойдай бир йигит кириб,
Тойдай чиқди.
Тойдай бир йигит кириб,
Ўйдай чиқди.
Ўйдай бир йигит кириб,
Сойдай чиқди.
Сойдай бир йигит кириб,
Кундай чиқди.
Кундай бир йигит кириб,
Тундай чиқди.
Тундай бир йигит кириб,
Тонгдай чиқди.
Тонгдай бир йигит кириб,
Оҳ, воҳ жоним-ай,
Жондай чиқди...

* * *

Oyday bir yigit kirib,
Boyday chiqdi.
Boyday bir yigit kirib,
Toyday chiqdi.
Toyday bir yigit kirib,
Yoyday chiqdi.
Yoyday bir yigit kirib,
Soyday chiqdi.
Soyday bir yigit kirib,
Kunday chiqdi.
Kunday bir yigit kirib,
Tunday chiqdi.
Tunday bir yigit kirib,
Tongday chiqdi.
Tongday bir yigit kirib,
Oh, voh jonim-ay,
Junday chiqdi...

* * *

Нур ёғилар устингдан,
Дур ёғилар устингдан,
Мен сени соғинаман,
Хур ёғилар устингдан.

Она дедим ойни мен,
Унга қўлим етмади.
Оҳ чекдим, оҳларимни,
Осмон олиб кетмади.

Соғинаман Онажон,
Тўйиб-тўйиб йиғлайман.
Сени кўргим келганда,
Мен осмонга бўйлайман.

Баланддасан, баландда,
Бўйим етмайди бўйлаб.
Сенсиз қандай яшадим,
Умрим етмайди ўйлаб.

Нур ёғилсин устингдан,
Дур ёғилсин устингдан,
Сени кўргим келади...
Хур ёғилсин устингдан.



Шоир ўз кутубхонасида



Шоир оиласи даврасида



Шоир қашқадарёлик фольклоршунос Чори Ҳамро ва бир гуруҳ қаламкашлар билан



*Шоирнинг онаси
невралари билан*



*Қашқадарёлик қалам аҳллари: ёзувчи Норқул Тилов, шоир Али
Ниёз, адиба Шарофат Ашурова ва шоир Хол Муҳаммад Ҳасан
билан. 1986 йил*



Ёзувчи Шарофат Ашурова билан



*Ҳажвчи Муҳаммад Очил шоир дўсти Али Ниёзга: «Кайфият-
ни кўтаринг! Бизни асосий танқидчиларимиз — мухлислар
кутишмоқда...»*



Шоир угли Нодир билан



*(Ўнгдан чапга) Шифокор Ғофуров, шоирлар Холмуҳаммад
Ҳасан, Али Ниёз, ёзувчилар Муҳаммад Очилов,
Қилич Нурмуҳамедов*

* * *

Nur yog'ilar ustingdan,
Dur yog'ilar ustingdan,
Men seni sog'inaman,
Hur yog'ilar ustingdan.

Ona dedim oyni men,
Unga qo'lim etmadi.
Oh chekdim, ohlarimni,
Osmon olib ketmadi.

Sog'inaman Onajon,
To'yib-to'yib yig'layman.
Seni ko'rgim kelganda,
Men osmonga bo'ylayman.

Balanddasan, balandda,
Bo'yim etmaydi bo'ylab.
Sensiz qanday yashadim,
Umrin yetmaydi o'ylab.

Nur yog'ilsin ustingdan,
Dur yog'ilsin ustingdan,
Seni ko'rgim keladi...
Hur yog'ilsin ustingdan.

* * *

Сен билан мангуга хайрлашаман,
Энди номингни ҳам тутмайман, етар!
Хиёнат қўйнига кирган кунингдан
Мен сени оқ қилдим, вужудимда қор.
Музааб кетаяпман, кўзларимда ёш,
Энди мен бир илинж тополмам сендан.
Кунлар ҳар дамгидек, ботмоқда қуёш,
Рўшно излаяпман эмистон тундан...
Рухим нега бунча парчаландинг, оҳ!
Бир номард хиёнат қилса, қилибди,
Менга тасалли бер, муҳтарам ҳаёт.
Бу йўлда айрилиқ бўлса, бўлибди,
Сен билан мангуга хайрлашаман...

* * *

Sen bilan manguga xayrlashaman,
Endi nomingni ham tutmayman, yetar!
Xiyonat qo'yniga kirgan kuningdan
Men seni oq qildim, vujudimda qor.
Muzlab ketayapman, ko'zlarimda yosh,
Endi men bir ilinj topolmam sendan.
Kunlar har damgidek, botmoqda quyosh,
Ro'shno izlayapman zimiston tundan...
Ruhim nega buncha parchalanding, oh!
Bir nomard xiyonat qilsa, qilibdi,
Menga tasalli ber, muhtaram hayot.
Bu yo'lda ayriliq bo'lsa, bo'libdi,
Sen bilan manguga xayrlashaman...

ҚОРИ БОБО ҚИССАСИ

(Жавоб)

Эшит: — Қадим бир ўғлон,
Топмай ҳақлик очунда.
Йўлга чиқиб ёлғиз бош,
Сафарга отланибди.
Кўрмоқ истаб оламни,
Олисларга кетибди.
Фақат яхшилик қўмсаб,
Йўл босибди арта-кеч.
Бедов йўрға йўрғалаб,
Келса дала-пайкалга,
Тўлишган алп девқомат,
Инсон сифат бир кимса,
Қўлда ўроғ-чалғиси.
Тушми-кечми, қай палла,
Ўрар бугдой шошмасдан,
Лекин ярим пишмасдан.
Хайрон йигит: «Ҳой ризқдор,
Бунда қандай ҳикмат бор?!
Сабр қилсанг беш-ўн кун,
Пишар ахир, бошоқлар»
Деган савол ташлабди.
Парво қилмас у девқор.
Ўрар бугдой шошмасдан,
Пишган, ярми пишмасдан...
Кетди йигит қистамай,
От эркига бўйсиниб.
Чўл қўйнига сингди у,
Таажжубда ўй суриб.

Чиқиб қолди кеч маҳал,
Бир йўловчи олдидан.
Тўдаланган ўтинлар -
Фарам турар ёнида.
Кўтараман дейди-ю
Кўтаролмас муттасил,
Яна устига босар,
Ўтин қалар жим, не ҳол?
— Хув, муҳтарам одамзод,
Ёрдам берай кел, сенга.
Етар йиққан ўтининг,
Қўйиб қўяй елкангга.
У гунг ёки бир баттол,
Пинак бузмас ё соқов.
Яна фарам устига,
Ўтин қўяр бесаноқ...
Кетди йигит, қистамай,
От эркига бўйсиниб.
Чўл қўйнига сингди у,
Таажжубда ўй суриб.
Қанча кетса кетди у,
Хаёлга фарқ, жавобсиз.
Бориб қолди боғ жойга,
Хўб ажойиб тоғ жойга.
Ҳорғин отга сув бериб,
Ул супага ўтирди.
Атрофига термулиб,
Гўзал манзара кўрди.
Ям-яшил тоғ этаги,
Сув оқади булоқдан.
Турфа қушлар сайроғи,
Эшитилар ҳар ёқдан.
Булбул хониш-куйида,

Айтди севги розини.
Ёлғиз бойқуш инида,
Тинглар булбул зорини.
Бойқуш асло англамас,
Булбулнинг озорини.
Боларилар гув-гувин,
Хали ҳеч ким кўрмаган.
Куйлар эрам булбули,
Кўнди ерга бутуқдан,
От ахлатин эзрилаб,
Сайрашини унутди...
Йигит қалби дил хушлик,
Тарк айлади шу чоғдан.
Ё раб, қандай кўргилик,
Гўзалликни ким ютди?!
Турди нохуш шошилиб,
Ёқмади бул манзара.
Ахир қайда қолди у
Хониш наво шўх овоз.
Наҳот бўлса шу куйнинг,
Ифлос кайфи жон аро.
Роҳат берса юракка,
Тинглаганда хуш овоз.
Қанча юрди от суриб,
Кўп одамлар учради.
Суриштирди улардан,
Бу жумбоқлар сирини.
Лекин ҳеч ким айтмади,
Ё назарга илмади.
Кўринмасди охири,
Наҳот имкон қасри.
Яна йўлда саргардон,
Кетди отга эрк бериб.

Хаёл қийнар не армон
Топмай уэга маслакдош.
Бу сукунат йўлида,
Узоқларга термулди.
Етиб борди кеч маҳал,
Бир кулбага сўққабаш.
Бир нуроний кекса чол,
Тураб өди ўй суриб.
Ёнида-чи қоп-қора,
Тугунча бор ним парча,
Уғлим — деди дур овоз,
Елкамга қўй кўтариб.
Олиб кетай паттаҳни -
Замонадан бир парча...
Йигит ҳайрон лол турди,
Отдан тушмай эгилди:
Бир силтамда қўймоқчи
Бўлди чолнинг тўшига.
«Ё раб, қандай чигал бу?»
Қимирламас тугунча.
Ёпириб, деб, чираниб,
От чўк тушди - тиззага»,
Не ҳол кечди бошидан,
Чолга боқди жавдираб:
— Ота бунда не сир бор?
Мен кўрдим кўп жумбоқлар.
Бир бошидан сўйлади:
Ўрувчи у девқорни.
Ва ўтинчи ҳаммолни,
Булбул деган мурдорни.
Чол руҳ бериб ўзига,
Боқиб олди тўрт томон.
Кейин кирди у тилга,

— Ўғлим, — дедим, бу — замон!
Яшабсан-у ҳаётда,
Демак, сен бор — омад сен.
Бевақт ўлим қилмасин,
Ёш умрингни ҳеч хазон,
— Хув сен кўрган девқомат,
Ажал ўти-салбати.
Четлаб ўтмас ҳеч кимни,
Кекса ёшга баробар.
Пишган бундой донлари,
Биздек тўлган кексалар.
Пишмагани сен каби —
Ёш ва жажжи болалар.
«Кўрдим», — дединг ҳаммолни.
Ўтин қилар тап тортмай.
Кўтаролмай гарамни,
Босар яна булоқлар.
Билсанг, ўғлим шудир бу,
Инсон кечган умри у.
Одам била-кўриб ҳам,
Қилар доим гуноҳлар.
Ҳа, булбулча овози,
Фалак берган талант-ку!
Борки одамзод рози,
Ўргатарлар кўп ҳикмат.
Тингла, ўрган уларни
Яшашига боқмагин.
Айтганини қилгин-у,
Қилганини қилмагин.
Бу не ҳол деб турибсан,
Бу одамлар гуноҳи,
Неча-неча асрдан —
Етиб келган арвоҳи.

Кўтаролмас ҳеч бир зот,
Ҳали ерда ружу бор.
Боргин болам, одам бўл,
Инсон бўлиб яшай бил...
Қори бобо бош силкиб,
Боқди Мурод юзига:
- Демокчи эмасман-ки,
Замонада зиё йўқ.
Зиё бор, азизларим,
Диёнатни ахтаринг.
Инсонлар бор, инсонлар,
Ҳаммага бирдай суюк.
Булардир ҳалол зотлар -
Буюклардан ҳам буюк...
Йўллар-йўлларга туташ,
Йиллар айланиб ўтди.
Асрларга елкадош
Йиллар олислаб кетди.
Қанча узун қулоқ сўз,
Қолиб кетди орқада.
Ўзалигин унутганлар -
Таниб-тонди ўзидан.
Шундай улур замоннинг,
Эъвозини билмаган,
Кўршапалак қушларга,
Раҳмим келар ёронлар.
Кези келса дунёни,
Наварига илмаган,
Чирик, қовоқ бошига,
Солгим келар қиронлар.
Фасл ҳақ. Ҳар дамгидек -
Такрор-такрор айланди.
Эсди майин хуш шамол,

Ватан бўйлаб кенгликда,
Эски бошлиқ ўрнига
Янги бошлиқ сайланди.
Балким бунда кўп ҳикмат,
Асл ҳикмат — бирликда.
Пулдорлар ин тополмай,
Қамоқларда жойланди...
Бизлар нега жим турдик,
Сукут сақладик. Даҳшат.
Бошланди қайта қуриш,
Адолат, бу адолат...
Бу сукунат, бу иллат,
Яратди қанча-қанча
Ошифта мулкдорларни,
Майпараст пулдорларни
Ҳаёсизлар шох отди,
Яширин ниқоб ичра.
Бу сукунат, бу иллат,
Яратди қанча-қанча,
Номуссия беорларни,
Кибор нишондорларни.
Бу сукунат, бу иллат,
Ҳақларга оғир ботди.
Ҳайқиришди тўлғониб,
Бор дунёни йўқотди.
Абдулла овозидан,
Сўзлардан шамшир ясаб.
Шоирлари тирик эл,
Иллатни юлиб отди.
Бу сукунат, бу иллат,
Юракларга тиф тортди.
«Ҳаққуш қичқириғи», — деб,
Одамларни уйғотди.

«Ёнаётган дарахт» бу,
«Юрагим», деб ҳар томон -
Кесгир сўзлар жарангин,
Айтди-ку шоир Омон...
Бу сукунат, бу иллат,
Бизларга оғир ботди.
Лоқайдлар ибтидоси,
Кириб келди ҳар уйга.
Басирлик уйқусидан -
Одамларни уйғотди.
Янгиланиш садоси,
Сизиб кирди ҳар уйга.
Кел, дўстгинам, энди биз,
Бошлайлик янги ҳаёт,
Янгича замонани.
Иллатлардан сақлайлик,
Кези келганда дўстим,
Сукут сақладик. Даҳшат,
Навбат келди ростакам —
Ўзимизни оқлайлик...

QORI BOBO QISSASI

(Javob)

Eshit: – Qadim bir o'g'lon,
Topmay haqlik ochunda.
Yo'lga chiqib yolg'iz bosh.
Safarga o'tlanibdi.
Ko'rmoq istab olamni,
Olislarga ketibdi.
Faqat yaxshilik qo'msab,
Yo'l bosibdi erta-kech.
Bedov yo'rg'a yo'rg'alab,
Kelsa dala-paykalga,
To'lishgan alp devqomat,
Inson sifat bir kimsa
Qo'lda o'rog'-chalg'isi.
Tushmi-kechmi, qay palla
O'rar bug'doy shoshmasdan,
Lekin yarim pishmasdan.
Xayron yigit: «Hoy rizqdor.
Bunda qanday hikmat bor?!
Sabr qilsang besh-o'n kun,
Pishar axir, boshoqlar»
Degan savol tashlabdi.
Parvo qilmas u devqor.
O'rar bug'doy shoshmasdan
Pishgan, yarmi pishmasdan...
Ketdi yigit qistamay,
Ot erkiga bo'ysinib.
Cho'l qo'yniga singdi u,
Taajjubda o'y surib.

Chiqib qoldi kech mahal,
Bir yo'lovchi oldidan.
To'dalangan o'tinlar -
G'aram turar yonida.
Ko'taraman deydi-yu
Ko'tarolmas muttasil,
Yana ustiga bosar,
O'tin qalar jim, ne hol?
— Huv, muhtaram odamzod,
Yordam beray kel, senga.
Yetar yiqqan o'tining,
Qo'yib qo'yay elkangga.
U gung yoki bir battol,
Pinak buzmas yo soqov.
Yana g'aram ustiga,
O'tin qo'yar besanoq...
Ketdi yigit, qistamay,
Ot erkiga bo'ysinib.
Cho'l qo'yniga singdi u,
Taajjubda o'y surib.
Qancha ketsa ketdi u,
Xayolga g'arq, javobsiz.
Borib qoldi bog' joyga,
Xo'b ajoyib tog' joyga.
Horg'in otga suv berib,
Ul supaga o'tirdi.
Atrofiga termulib,
Go'zal manzara ko'rdi.
Yam-yashil tog' etagi,
Suv oqadi buloqdan,
Turfa qushlar sayrog'i,
Eshitilar har yoqdan.
Bulbul xonish-kuyida,
Aytadi sevgi rozini,

Yolg'iz boyqush inida,
Tinglar bulbul zorini.
Boyqush aslo anglamas,
Bulbulning ozorini.
Bolarilar g'uv-g'ugin,
Xali hech kim ko'rmagan.
Kuylar eram bulbuli,
Qo'ndi nerga butoqdan.
Ot axlatin ezg'ilab,
Sayrashini unutdi...
Yigit qalbi dil xushlik,
Tark ayladi shu chog'dan.
Yo rab, qanday ko'rgilik,
Go'zallikni kim yutdi?!
Turdi noxush shoshilib,
Yoqmadi bul manzara.
Axir qayda qoldi u
Xonish navo sho'x ovoz
Nahot bo'lsa shu kuyning,
Iflos kayfi jon aro,
Rohat bersa yurakka.
Tinglaganda xush ovoz,
Qancha yurdi ot surib.
Ko'p odamlar uchradi,
Surishtirdi ulardan.
Bu jumboqlar sirini,
Lekin hech kim aytmadi,
Yo nazarga ilmadi.
Ko'rinmasdi oxiri,
Nahot imkon qasri,
Yana yo'lda sargardon,
Ketdi otga erk berib.
Xayol qiynar ne armon -

Topmay o'zga maslakdosh.
Bu sukunat yo'lida,
Uzoqlarga termuldi.
Etib bordi kech mahal,
Bir kulbaga so'qqabosh.
Bir nuroniy kekxa chol,
Turar edi o'y surib.
Yonida-chi qop-qora,
Tuguncha bor nim parcha,
O'g'lim — dedi dur ovoz,
Yelkamga qo'y ko'tarib,
Olib ketay pattahni -
Zamonadan bir parcha...
Yigit hayron lol turdi,
Otdan tushmay egildi:
Bir siltamda qo'ymoqchi
Bo'ldi cholning to'shiga.
«Yo rab, qanday chigal bu? -
Qimirlamas tuguncha.
Yo pirim, deb, chiranib,
Ot cho'k tushdi - tizzaga»,
Ne hol kechdi boshidan,
Cholga boqdi javdirab:
— Ota bunda ne sir bor?
Men ko'rdim ko'p jumboqlar.
Bir boshidan so'yladi:
O'ruvchi u devqorni,
Va o'tinchi hammolni,
Bulbul degan murdorni.
Chol ruh berib o'ziga,
Boqib oldi to'rt tomon,
Keyin kirdi u tilga,
— O'g'lim, — dedim, bu — zamon!

Yashabsan-u hayotda,
Demak, sen bor — oʻmad sen.
Bevaqt oʻlim qilmasin,
Yosh umringni hech xazon,
— Huv sen koʻrgan devqomat,
Ajal oʻti-salbati.
Chetlab oʻtmas hech kimni,
Keksa yoshga barobar.
Pishgan bugʻdoy donlari,
Bizdek toʻlgan keksalar.
Pishmagani sen kabi —
Yosh va jaji bolalar.
«Koʻrdim», — deding hammolni.
Oʻtin qilar tap tortmay.
Koʻtarolmay gʻaramni,
Bosar yana butoqlar.
Bilsang, oʻgʻlim shudir bu,
Inson kechgan umri u.
Odam bila-koʻrib ham,
Qilar doim gunohlar.
Ha, bulbulcha ovozi,
Falak bergan talant-ku.
Borki odamzod rozi,
Oʻrgatarlar koʻp hikmat.
Tingla, oʻrgan ularni —
Yashashiga boqmagin.
Aytganini qilgin-u,
Qilganini qilmagin,
Bu ne hol deb turibsan,
Bu odamlar gunohi,
Necha-necha asrdan —
Yetib kelgan arvohi.

Ko'tarolmas hech bir zot,
Hali erda ruju bor.
Borgin bolam, odam bo'l,
Inson bo'lib yashay bil...
Qori bobo bosh silkib,
Boqdi Murod yuziga:
- Demoqchi emasman-ki,
Zamonada ziyo yo'q.
Ziyo bor, azizlarim,
Diyonatni axtaring.
Insonlar bor, insonlar,
Hammaga birday suyak.
Bulardir halol zotlar -
Buyuklardan ham buyuk...
Yo'llar-yo'llarga tutash,
Yillar aylanib o'tdi.
Asrlarga elkadosh
Yillar olislab ketdi.
Qancha uzun quloq so'z,
Qolib ketdi orqada.
O'zligin unutganlar -
Tanib-tondi o'zidan.
Shunday ulug' zamonning,
E'zozini bilmagan,
Ko'rshapalak qushlarga,
Rahmim kelar yoronlar.
Kezi kelsa dunyoni,
Nazariga ilmagan,
Chirik, qovoq boshiga,
Solgim kelar qironlar.
Fasl haq. Har damgidek -
Takror-takror aylandi.
Esdi mayin xush shamol,

Vatan bo'ylab kenglikda,
Eski boshliq o'miga
Yangi boshliq saylandi.
Balkim bunda ko'p hikmat,
Asl hikmat — birlikda.
Puldorlar in topolmay,
Qamoqlarda joylandi...
Bizlar nega jim turdik,
Sukut saqladik. Dahshat.
Boshlandi qayta qurish,
Adolat, bu adolat...
Bu sukunat, bu illat,
Yaratdi qancha-qancha,
Oshifta mulkdorlarni,
Mayparast puldorlarni,
Hayosizlar shox otdi,
Yashirin niqob ichra.
Bu sukunat, bu illat,
Yaratdi qancha-qancha,
Nomussiz beorlarni,
Kibor nishondorlarni.
Bu sukunat bu illat,
Haqlarga og'ir botdi.
Hayqirishdi to'lg'onib,
Bor dunyoni yo'qotdi.
Abdulla ovozidan,
So'zlardan shamshir yasab.
Shoirlari tirik el,
Illatni yulib otdi.
Bu sukunat, bu illat,
Yuraklarga tig' tortdi.
«Haqqush qichqirig'i», — deb,
Odamlarni uyg'otdi.

«Yonayotgan daraxt» bu,
«Yuragim», deb har tomon -
Kesgir so'zlar jarangin,
Aytdi-ku shoir Omon...
Bu sukunat, bu illat,
Bizlarga og'ir botdi.
Loqaydlar ibtidosi,
Kirib keldi har uyga.
Basirlik uyqusidan -
Odamlarni uyg'otdi.
Yangilanish sadosi,
Sizib kirdi har uyga.
Kel, do'stginam, endi biz,
Boshlaylik yangi hayot,
Yangicha zamonani.
Illatlardan saqlaylik,
Kezi kelganda do'stim,
Sukut saqladik. Dahshat,
Navbat keldi rostakam —
O'zimizni oqlaylik...

* * *

Остонангдан ҳатлаб ўтсам ўтибман-да,
Бу кеча сен билан ётсам ётибман-да.
Шунга шунча қовоқ тумшуқ нега керак,
Бир қучоқлаб ўпсам – сени ўпибман-да.
Ёрим дедим, ёрим дегин, ишонгин сен,
Келдим яна кўрпачангни тўшагин сен.

Бу дунёда нима бўлса бўлаверар,
Оғзида гап турмаганлар кулаверар,
Мени дегин, мени билгин бир умрга,
Парво қилма, ғийбатчилар улаверар.
Ёрим дедим, ёрим дегин, ишонгин сен,
Келдим яна кўрпачангни тўшагин сен.

Кетмас бўлиб келдим энди ёр-ёр айтгин,
Остонагда қолишимни зор-зор айтгин.
Бўлар-бўлмас гапларни қўй, Омон-омон,
Дўст қувонсин, душман ёнсин орлаб айтгин,
Ёрим дедим, ёрим дегин, ишонгин сен,
Келдим яна кўрпачангни тўшагин сен.

* * *

Ostonangdan hatlab o'tsam o'tibman-da,
Bu kecha sen bilan yotsam yotibman-da.
Shunga shuncha qovoq tumshuq nega kerak,
Bir quchoqlab o'psam – seni o'pibman-da.
Yorim dedim, yorim degin, ishongin sen,
Keldim yana ko'rpachangni to'shagin sen.

Bu dunyoda nima bo'lsa bo'laverar,
Og'zida gap turmaganlar kulaverar,
Meni degin, meni bilgin bir umrga,
Parvo qilma; g'iybatchilar ulaverar.
Yorim dedim, yorim degin, ishongin sen,
Keldim yana ko'rpachangni to'shagin sen.

Ketmas bo'lib keldim endi yor-yor aytgin,
Ostonangda qolishimni zor-zor aytgin.
Bo'lar-bo'lmas gaplarni qo'y, Omon-omon,
Do'st quvonsin, dushman yonsin orlab aytgin,
Yorim dedim, yorim degin, ishongin sen,
Keldim yana ko'rpachangni to'shagin sen.

* * *

*Сингилларим Машар ва
Гулноржонларга*

Акажон деганинг етади,
Баданим жунжикиб кетади,
Хаёлимдан нелар ўтади,
Сингилжон мен сени эсласам.

Қанчалар меҳрибон эдинг-а,
Онамдай хуш забон эдинг-а,
Опамдай бир армон эдинг-а,
Сингилжон мен сени эсласам.

Кўнглимдан сизилиб оқади,
Ортимдан эзилиб боқади,
Маюс тортишинг ҳам ёқади,
Сингилжон мен сени эсласам,
Баданим жунжикиб кетади...

* * *

*Singillarim Mashar va
Culnorjontarga*

Akajon deganing yetadi,
Badanim junjikib ketadi,
Xayolimdan nelar o'tadi,
Singiljon men seni eslasam.

Qanchalar mehribon eding-a,
Onamday xush zabon eding-a,
Opamday bir armon eding-a,
Singiljon men seni eslasam.

Ko'nglimdan sizilib oqadi,
Ortimdan ezilib boqadi,
Mayus tortishing ham yoqadi,
Singiljon men seni eslasam,
Badanim junjikib ketadi...

* * *

*Рух танни тарк этганда,
яхши одамларнинг жони ари
сифат, ёмон одамларнинг жони
чигиртка сифат чиқади.*

Ғавзолийдан

Мен дераза ортида бу кун,
Ташқарига қарайман ҳорғин.
Узоқлардан толиққан руҳлар
Асалари мисоли уҳлар...

Ойнабанддан ой тикка боқар,
Эрта билсанг бошланар баҳор.
Тугади қиш, аёзли оқшом,
Юрагимда изғирин боқсанг...

Бўзаради бўзрайган кеча,
Жон талашар ғуж-ғуж чигиртка,
Фаришталар сўроққа тутар...
Кел, дўстгинам, кўнглимни кўтар.

Мен дераза ортида ёлғиз,
Ойнабанддан қарайди бир қиз.
Узоқларда руҳлар ўйнайди,
Асалари каби куйлайди...

* * *

*Ruh tanni tark etganda,
yaxshi odamlarning joni ari
sifat, yomon odamlarning joni
chigirtka sifat chiqadi.
G'azzoliydan*

Men deraza ortida bu kun,
Tashqariga qarayman horg'in.
Uzoqlardan toliqqan ruhlar
Asalari misoli uxlar...

Oynabanddan oy tikka boqar,
Erta bilsang boshlanar bahor.
Tugadi qish, ayozli oqshom,
Yuragimda izg'irin boqsang...

Bo'zaradi bo'zraygan kecha,
Jon talashar g'uj-g'uj chigirtka,
Farishtalar so'roqqa tutar...
Kel, do'stginam, ko'nglimni ko'tar.

Men deraza ortida yolg'iz,
Oynabanddan qaraydi bir qiz.
Uzoqlarda ruhlar o'ynaydi,
Asalari kabi kuylaydi...

* * *

*Ҳасрат кечиб, армон кечиб -
Ўзимизга етсак бўлар.*

Усмон Азим

Усмон дўстим
Сизга гапим; Ҳасрат кечдим,
Армон кечдим,
Лек ўзимни топмадим.
Сукунатга чўкиб-чўкиб.
Тандан руҳга ўтсам-да,
Мен найлайин,
Митти юлдуз,
Тимсолидай отмадим ...
Бунга асли сабр керак,
Бардош керак билсам-да,
Бардошимни тошлар ютди,
Мен энди қисматимни
Башоратга йўйинг-чи,
Дўст ахтардим,
Дўст изладим,
Қанча йиллар бекорга —
Эссиз умрим, елдай кетди,
Мен ўзимга ёқмадим.
Армон дедим,
Ўй сураман.
Ўйларимга етолмай,
Қайта-қайта
Тафтишларим,
Армонимга тўкилди.
Жавобини,
Эплай олмай —
Олис,
Олис тарихдан —

Бўзлаётган нидо келди,
Бобом оёққа турди:
Қалқи болам,
Уйғон деди,
Томирингда
Оқаётган
Бу қандайин
Қон деди.
Ўзинг учун ёнмасанг ҳам,
Боланг учун
Ён деди ...
Юртим кечир,
Йўл бошида
Йўллар кездим, йўл чиздим.
Индамаслар қаторида
Жимман, юмуқдир кўзим.
Ватан ичра,
Ватан учун,
Мен жонимдан кечмасам,
Усмон дўстим бу ёғи чин...
Муқаддас...
Бундай...
Ўлим...

* * *

*Hasrat kechib armon kechib -
o'zimizga etsak bo'lar.*

Usmon Azim

Usmon do'stim
Sizga gapim; Hasrat kechdim,
Armon kechdim,
Lek o'zimni topmadim.
Sukunatga cho'kib-cho'kib.
Tandan ruhga o'tsam-da,
Men naylayin,
Mitti yulduz,
Timsoliday otmadim...
Bunga asli sabr kerak,
Bardosh kerak bilsam-da,
Bardoshimni toshlar yutdi,
Men endi qismatimni
Bashoratga yo'ying-chi,
Do'st axtardim,
Do'st izladim,
Qancha yillar bekorga —
Essiz umrim, elday ketdi
Men o'zimga yoqmadim.
Armon dedim,
O'y suraman.
O'ylaringa etolmay,
Qayta-qayta
Taftishlarim,
Armonimga to'kildi,
Javobini,
Eplay olmay —
Olis,
Olis tarixdan —

Bo'zlayotgan nido keldi,
Bobom oyoqqa turdi:
Qalqi bolam,
Uyg'on dedi,
Tominingda
Oqayotgan
Bu qandayin
Qon dedi.
O'zing uchun yonmasang ham,
Bolang uchun
Yon dedi ...
Yurtim kechir,
Yo'l boshida
Yo'llar kezdim, yo'l chizdim.
Indamaslar qatorida
Jimman, yumuqdir ko'zim.
Vatan ichra,
Vatan uchun,
Men jonimdan kechmasam,
Usmon do'stim bu yog'i chin...
Muqaddas...
Bunday...
O'lim...

ОҒАЙНИГИНАМ

Мен сени кўраман
Эрталаб илҳақ,
Ҳурматингни қилиб
Салом бераман.
Ишларинг яхшими,
Ёмонми мутлоқ,
Бепарво, беташвиш,
Ишга кетасан.
Майингина Жўрам —
Юрибсан хушқол,
Доймо ОМОН бўл,
Оғайнигинам.

Таърифингни қанча
Тўқидим билсанг,
Керакли, кераксиз
Жойда мақтадим.
Сен Ҳса бепарво
Беминнат, ўктам.
Рўзгор ташвишидан
Ҳеч ҳам ортмадинг.
Ювошгина ошнам,
Бўшгина ошнам,
Озгина жилмайгин,
Оғайнигинам.

Сен жимсан, атроф жим,
Таъбингга мойил.
Бошқа нима керак,
Олди қочди гап.
Ўзингни тутасан
Бечорадайин.
Болангга айтмайсан
Ҳатто дардингни.
Гўё ўйлагандай
Бу сирли олам,
Қурилган чорасиз,
Оғайнигинам.

Қандай фикр бўлса
Маъқуллаш одат.
Кун ўтди, тун ўтди,
Умр ҳам ўтди,
Шунинг ўзи сенга
Улуғ саодат.
Оламда нима гап —
Парвойинг палак.
Сенга нега салом
Бераман дўстим,
Ўйлаб кўрганмисан,
Оғайнигинам.

Оддий мўминдирсан,
Ётлардан йироқ.
Меҳнат қозонида
Қайнаган кафтинг.
Кўпларга едириб,
Ичириб бироқ,
Ҳали исимаган
Танангда тафтинг.
Шуларни ўйласам
Ўйларим алам,
Ўзингни қўлга ол,
Оғайнигинам.

Бир бошга бир ўлим,
Ҳақдан, ноҳақдан...
Беқарор дунёнинг
Ташвиши кўпдир.
Кўлингга, тилингга
Солинган «кишан».
Замоннинг зорига
Мужкиб йиқилдинг.
Менинг бу беозор,
Озурда нолам,
Тепангда турибман,
Оғайнигинам.

На елка, на бош бор,
На кўз, қулоқ бор.
Қўлингдан тутишга,
На қўл — оёқ бор.
Сен эса ётибсан
Шаффоф, беозор.
Шунчалар даҳшат-ми,
Бу кекса олам,
Дилингдан чинқиргин,
Эй оми одам.
Ўрнингдан турсанг-чи,
Оғайнигинам.

Бу ҳали ҳаммаси —
Эмас, гапим кўп.
Дунёнинг ярми оч,
Ярми яланғоч.
Бир қисм бойлар бор
Хунрез, қорни тўқ...
Қаҳқашонга нега
Сиямадинг болам,
Танийман, у ўзим...
Ўзимнинг иним.
Сенга айтганим шу,
Оғайни...
Гинам...

OG'AYNIGINAM

Men seni ko'raman
Ertalab ilhaq,
Hurmatingni qilib
Salom beraman.
Ishlaring yaxshimi,
Yomonmi mutloq,
Beparvo, betashvish,
Ishga ketasan.
Mayingina Jo'ram —
Yuribsan xushhol,
Doimo OMON bo'l,
Og'ayniginam.

Ta'rifingni qancha
To'qidim bilsang,
Kerakli, keraksiz
Joyda maqtadim.
Sen esa beparvo
Beminnat, o'ktam.
Ro'zg'or tashvishidan
Hech ham ortmading.
Yuvoshgina oshnam,
Bo'shgina oshnam,
Ozgina jilmaygin,
Og'ayniginam.

Sen jimsan, atrof jim,
Ta'bingga moyil.
Boshqa nima kerak,
Oldi qochdi gap.
O'zingni tutasan
Bechoradayin.
Bolangga aytmayсан
Hatto dardingni.
Go'yo o'ylaganday
Bu sirli olam,
Qurilgan chorasiz,
Og'ayniginam.

Qanday fikr bo'lsa
Ma'qullash odat.
Kun o'tdi, tun o'tdi,
Umr ham o'tdi,
Shuning o'zi senga
Ulug' saodat.
Olamda nima gap —
Parvoying palak.
Senga nega salom
Beraman do'stim,
O'ylab ko'rganmisan,
Og'ayniginam.

Oddiy mo'mindirsan,
Yotlardan yiroq.
Mehnat qozonida
Qaynagan kafting.
Ko'plarga yedirib,
Ichirib biroq,
Hali isimagan
Tanangda tafting.
Shularni o'ylasam
O'ylarim alam,
O'zingni qo'lga ol,
Og'ayniginam.

Bir boshga bir o'lim,
Haqdan, nohaqdan...
Beqaror dunyoning
Tashvishi ko'pdir.
Qo'lingga, tilingga
Solingan «kishan».
Zamonning zoriga
Munkib yiqilding
Mening bu beozor,
Ozurda nolam,
Tepangda turibman,
Og'ayniginam.

Na elka, na bosh bor,
Na ko'z, quloq bor.
Qo'lingdan tutishga,
Na qo'l — oyoq bor.
Sen esa yotibsan
Shaffof, beozor.
Shunchalar dahshat-mi,
Bu keksa olam,
Dilingdan chinqirgin,
Ey omi odam.
O'rningdan tursang-chi,
Og'ayniginam.

Bu hali hammasi —
Emas, gapim ko'p.
Dunyoning yarmi och,
Yarmi yalang'och.
Bir qism boylar bor
Xunrez, qorni to'q...
Qahkashonga nega
Sig'mading bolam,
Taniyman, u o'zim...
O'zimning inim.
Senga aytganim shu,
Og'ayni...
Ginam...

* * *

«Мен ер билан салом-алик
қиламан»

Тоғай Мурод

Тоғай Мурод, тоғдай эди,
Тоғ неки, у боғдай эди,
Ерга сирдош... «Қордай» эди...
Қор не — яхшимдан айрилдим.

Изи қолди далаларда,
Кўзи қолди қояларда,
Сўзи қолди сояларда,
Наср — бахшимдан айрилдим.

«От кишнаган оқшомлар»-ай,
Ундан қолган далалар-ай,
Ойдиндаги оқшомлар-ай,
Замондошимдан айрилдим.

Хўжасоат Хаста бўлди,
Кўнғиротим ғамга тўлди,
Эҳ, оғажон ёмон бўлди,
Улуғ бир «дарддан» айрилдим,
Тоғайдай марддан айрилдим.

Тоғай Мурод, тоғдай эди...

* * *

*«Men yer bilan salom-alik
qilaman.»*

Tog'ay Murod

Tog'ay Murod, tog'day edi,
Tog' neki, u bog'day edi,
Erga sirdosh... «Qorday» edi...
Qor ne — yaxshimdan ayrildim.

Izi qoldi dalalarda,
Ko'zi qoldi qoyalarda,
So'zi qoldi soyalarda,
Nasr — baxshimdan ayrildim.

«Ot kishnagan oqshomlar»-ay,
Undan qolgan dalalar-ay,
Oydindagi oqshomlar-ay,
Zamendoshimdan ayrildim.

Xo'jasoat Xasta bo'ldi,
Qo'ng'irotim g'amga to'ldi,
Eh, og'ajon yomon bo'ldi,
Ulug' bir «darddan» ayrildim,
Tog'ayday marddan ayrildim.

Tog'ay Murod, tog'day edi...

* * *

Азобдан дардларим сирмас уйимга,
Кўчага қочиб чиқиб аразлар айтар.
Кўнглим йиғлаяпти сирмай уйимга,
Сатрга тизилиб келади байтлар.
Голиб тошин отар ғазабим менинг,
Тўлиб-тошиб ётар азобим менинг.

Ёринг заҳар ютди қон қақшатдилар,
Элинг заҳар ютди жон қақшатдилар,
Табиат мен сенга боқиб йиғлайман,
Сени заҳар этдилар, оҳ, қақшатдилар.
Голиб тошин отар ғазабим менинг,
Тўлиб-тошиб ётар азобим менинг

Тоглар чўққисида қорлар эриди,
Виждонлар эриди, орлар эриди,
Кимларга сирғинай, кимларга айтай,
Меҳрибон зотлар йўқ, борлар эриди.
Голиб тошин отар ғазабим менинг,
Тўлиб-тошиб ётар азобим менинг.

Мунаввар, митти куй, хушимга келтир,
Менга раҳм қилгин, инсофимни бер,
Азобдан товалай дунёни буткул,
Ғазабдан товалай дунёни буткул.
Голиб тошин отар ғазабим менинг,
Тўлиб-тошиб ётар азобим менинг.

Тоглар чўққисида қорлар турсин-а,
Виждонлар турсин-а, орлар турсин-а,
Жажжи гўдакларнинг ҳаққи-ҳурмати,
Дунёда номуси борлар турсин-а.
Голиб тошин отмай ғазабим ўлсин,
Тўлиб-тошиб ётган азобим ўлсин.

* * *

Azobdan dardlarim sig'mas uyimga,
Ko'chaga qochib chiqib arazlar aytar.
Ko'nglim yig'layapti sig'may uyimga,
Satrga tizilib keladi baytlar.
G'olib toshin otar g'azabim mening,
To'lib-toshib yotar azobim mening.

Yoring zahar yutdi qon qaqshatdilar,
Eling zahar yutdi jon qaqshatdilar,
Tabiat men senga boqib yig'layman,
Seni zahar etdilar, oh, qaqshatdilar,
G'olib toshin otar g'azabim mening,
To'lib-toshib yotar azobim mening

Tog'lar cho'qqisida qorlar eridi,
Vijdonlar eridi, orlar eridi,
Kimlarga sig'inay, kimlarga aytay,
Mehribon zotlar yo'q, borlar eridi.
G'olib toshin otar g'azabim mening,
To'lib-toshib yotar azobim mening.

Munavvar, mitti kuy, xushimga keltir,
Menga rahm qilgin, insofimni ber,
Azobdan tozalay dunyoni butkul,
G'azabdan tozalay dunyoni butkul.
G'olib toshin otar g'azabim mening,
To'lib-toshib yotar azobim mening.

Tog'lar cho'qqisida qorlar tursin-a,
Vijdonlar tursin-a, orlar tursin-a,
Jajji go'daklarning haqqi-hurmati
Dunyoda nomusi borlar tursin-a.
G'olib toshin otmay g'azabim o'lsin,
To'lib-toshib yotgan azobim o'lsin.

* * *

Эзилиб кетаман гоҳида,
Руҳимга сиғмайди саволлар.
Нега деб сўраманг оҳимдан —
Топмайсиз дардимга даволар.

Ҳа, шундай яралди-хаёлот,
Қониқмай яшайман эртамдан:
Бир кечам ғам чекар-талофат,
Бир кечам севинчга йўғрилган.

Шундадир ғашликлар тухфаси,
Яхшилик сен билан яшайин,
Илиқдир софликнинг нафаси,
О, софлик меҳрингга тўйин...

* * *

Ezilib ketaman gohida,
Ruhimga sig'maydi savollar.
Nega deb so'ramang ohimdan —
Topmaysiz dardingga davolar.

Ha, shunday yaraldi-xayolot,
Qoniqmay yashayman ertamdan:
Bir kecham g'am chekar-talofat,
Bir kecham sevinchga yo'g'rilgan.

Shundadir g'ashliklar tuhfasi,
Yaxshilik sen bilan yashayin,
Iliqdir soflikning nafasi,
O, soflik mehringga to'yayin...

* * *

Сиз ҳеч қачон ошхоналарда,
Навбат кутиб ош емагансиз.
Вокзалларда одамлар каби,
Тортмагансиз йўл азобини...
Мен биламан узоқ яшайсиз,
Отангиз ҳам узоқ яшаган.
(Бунни менга отам айтганди)
Айтаяпман мен ҳам ўғлимга.
Сиз-ку мени тушунолмайсиз,
Хоҳламайсиз тушунишни ҳам.
Мавжуд инсон куч-қудратларин,
Ўлчагайсиз фақат пул билан.
Пул-чи доим турар баландда,
Бу албатта назарингизда.
Одамлардан сизни ажратган
Қабиҳ ҳислар томошасида.
Айб эмасдир, балким сиз учун
Замонада ўйинчоқ бўлмоқ.
Ҳайрон боқиб башарангизга.
Ажаб дейман, жонли ўйинчоқ...
Менга жуда алам қилади,
Ўйинчоқин томоша қилмоқ...

* * *

Siz hech qachon oshxonalarda,
Navbat kutib osh yemagansiz.
Vokzallarda odamlar kabi,
Tortmagansiz yo'l azobini...
Men bilaman uzoq yashaysiz,
Otangiz ham uzoq yashagan.
(Buni menga otam aytgandi)
Aytayapman men ham o'g'limga.
Siz-ku meni tushunolmaysiz,
Xohlamaysiz tushunishni ham.
Mavjud inson kuch-qudratlarin,
O'lchagaysiz faqat pul bilan.
Pul-chi doim turar balandda,
Bu albatta nazaringizda.
Odamlardan sizni ajratgan
Qabih hislar tomoshasida.
Ayb emasdir, balkim siz uchun
Zamonada o'yinchoq bo'lmoq.
Hayron boqib basharangizga.
Ajab deyman, jonli o'yinchoq...
Menga juda alam qiladi,
O'yinchoqin tomosha qilmoq...

* * *

Ҳали номи ўчмаган одам,
Ҳали кўзи очиқ кимсалар,
Бир поғона пастга тушингиз,
Бир поғона чиқинг тепага.

Шунда нени кўрасиз ёхуд,
Овчилар бор, кечирманг зинҳор.
Думли, думсиз одамлар мавжуд,
Улар асли ким ўзи? Улар ...

Таваккалга жой йўқ энди ҳеч,
Энди аниқ режалар керак.
Томиридан қирқинг думларни,
Ахир шуни истар соф юрак.

Нафас олсин тўйиб одамзод,
Қаҳқаҳага тўлсин шу олам.
Ҳаёт ўнқир-чўнқирлар эмас,
Ўнқирларни текисланг, демак,
Омоч керак бўлса бўлайин.

* * *

Hali nomi o'chmagan odam,
Hali ko'zi ochiq kimsalar,
Bir pog'ona pastga tushingiz,
Bir pog'ona chiqing tepaga.

Shunda neni ko'rasiz yoxud,
Ovchilar bor, kechirmang zinhor.
Dumli, dumsiz odamlar mavjud,
Ular asli kim o'zi? Ular ...

Tavakkalga joy yo'q endi hech,
Endi aniq rejalar kerak.
Tomiridan qirqing dumlarni,
Axir shuni istar sof yurak.

Nafas olsin to'yib odamzod,
Qahqahaga to'lsin shu olam.
Hayot o'nqir-cho'nqirlar emas,
O'nqirlarni tekislang, demak,
Omoch kerak bo'lsa bo'layin.

* * *

Ихлосим қайтмасин сиздан чинорлар,
Эгаллаб олибсиз баланд жойларни.
Беғубор боғлар ҳам сиздан гинадор,
Тарк этиб кетибсиз хушҳол сойларни.

Тоғларга айланди маскан жойингиз,
Фурсат тополмаймиз бориб кўришга.
Жуда ҳам юқори баландларда сиз,
Бизлар ўрганганмиз пастда юришга...

Таърифга ўрин йўқ, ташрифда бор сир,
Майлига, тоғларни тарк этманг зинҳор.
Биласиз, тоғларни ушлаб турган ер —
Баярида миллион ниҳоллар яшар.
Ихлосим қайтмасин сиздан чинорлар...

* * *

Ixlosim qaytmasin sizdan chinorlar,
Egallab olibsiz baland joylarni.
Beg'ubor bog'lar ham sizdan ginador,
Tark etib ketibsiz xushhol soylarni.

Tog'larga aylandi maskan joyingiz,
Fursat topolmaymiz borib ko'rishga.
Juda ham yuqori balandlarda siz,
Bizlar o'rganganmiz pastda yurishga...

Ta'rifga o'rin yo'q, tashrifda bor sir,
Mayliga, tog'larni tark etmang zinhor.
Bilasiz, tog'larni ushlab turgan yer –
Bag'rida million nihollar yashar.
Ixlosim qaytmasin sizdan chinorlar...

* * *

Уруғларни сепиб юбордик,
Туркистон бўйлаб.
Озодлик уруғларини
Сепдик, ҳар юракка,
Ҳар хонадонга.
Униб чиқди озодликнинг
Мурғак куртаклари,
Етмиш йилдан кейин кечикиб,
Яссавийнинг ҳикматларидек.
Абдулланинг феъли каби кенг
Ўзбекистон бўйлаб таралди.
Таралди энди жаҳонга
Энди жуда асраш керакдир,
Авайлаш керакдир — Имондек,
Авайлаш керакдир — Ватандек.
Туйғулари тирилган,
Уйқудан уйғонган болаларини —
Сизларга ишониб топшираяпман,
Ана шу озодлик ниҳолларини,
Уйқудан уйғонган болаларини...

* * *

Urug'larni sepib yubordik,
Turkiston bo'ylab.
Ozodlik urug'larini
Sepdik, har yurakka,
Har xonadonga.
Unib chiqdi ozodlikning
Murg'ak kurtaklari,
Etmish yildan keyin kechikib,
Yassaviyning hikmatlaridek.
Abdullaning fe'li kabi keng
O'zbekiston bo'ylab taraldi.
Taraldi endi jahonga
Endi juda asrash kerakdir,
Avaylash kerakdir — Imondek,
Avaylash kerakdir — Vatandek.
Tuyg'ulari tirilgan,
Uyqudan uyg'ongan bolalarini —
Sizlarga ishonib topshirayapman,
Ana shu ozodlik nihollarini,
Uyqudan uyg'ongan bolalarini...

* * *

Ёз келади такрор, куз келар такрор,
Йиллар бир-бирини қувиб ўтади.
Қишнинг оғушида кўп баҳорлар бор,
Одам фаслларга ўхшаб кетади.

Инсон ҳаёт йўли тугаган жойда,
Умрини бошлагай кенжа авлоди.
Жийдалар ўрнига ёкарлар жийда,
Ҳаёт қайнаб-жушиб давом этади.

Бу тарих неларни кўрмади ёши,
Хатоларни кўрди, ҳақларни кўрди.
Дунёнинг оғриқдан эгилди боши...
Бузишди-тузишди, қайтадан қурди.

Балким, тарих учун такрорлик ҳақдир,
Одамзод руҳида эзгулик абад.
Мени сенга қўшиб туташган тақдир,
Фарзандлар умрига улашар ҳаёт.

Иншолло, мақсадга кўчсам, ҳақ сўзим,
Не-не зодагонлар, овсарлар ўтди.
Дунёни кўрдим деб танҳо, мен ўзим
Деганлар аслида бузишиб кетди...

Ҳа, қутлуғ саналар тарихда яккаш,
Даҳолар бор, бўлган замониға хос.
Истиқлол йўлида бизларга йўлдош
Ўзбекистон қолар, у такрор эмас.

* * *

Yoz keladi takror, kuz kelar takror,
Yillar bir-birini quvib o'tadi.
Qishning og'ushida ko'p bahorlar bor,
Odam fasllarga o'xshab ketadi.

Inson hayot yo'li tugagan joyda,
Umrini boshlagay kenja avlodi.
Jiydalar o'rniga ekarlar jiyda,
Hayot qaynab-jo'shib davom etadi.

Bu tarix nelarni ko'rmadi yoshi,
Xatolarni ko'rdi, haqlarni ko'rdi.
Dunyoning og'riqdan egildi boshi...
Buzishdi-tuzishdi, qaytadan qurdi.

Balkim, tarix uchun takrorlik haqdir,
Odamzod ruhida ezgulik abad.
Meni senga qo'shib tutashgan taqdir,
Farzandlar umriga ulashar hayot.

Inshollo, maqsadga ko'chsam, haq so'zim,
Ne-ne zodagonlar, ovsarlar o'tdi.
Dunyoni ko'rdim deb tanho, men o'zim
Deganlar aslida buzishib ketdi...

Ha, qutlug' sanalar tarixda yakkash,
Daholar bor, bo'lgan zamoniga xos.
Istiqlol yo'lida bizlarga yo'ldosh
O'zbekiston qolar, u takror emas.

ДАЪВАТ

М...га

Яхшиликлар истаб келдим қошинга дўстим,
Сен мен учун покдомон инсон вурсан.
Сени соғлом кўриб, беҳад, бағоят ўсдим,
Сен ҳам менинг юрагимга — бир боқиб кўрсанг.
Бу дунёда поклик улуғ, ҳақ, инсоф улуғ,
Демак, менинг митти қалбим излар пок дармон.
Бу даргоҳга кимлар келиб-кетмади қуруқ,
Энди бизнинг юракларда бўлмасин армон.
Равшан йўллар солмоқ учун борайлик бирга,
Вазифамиз — хатоларга ўт-олов қўйиш.
Кези келса оёқ яланг чопайлик қирга,
Товонларга тиканлар урганда ҳам ниш.
Азиз дўстим, сени истаб — сени қўмсадим,
Лоқайдлар-у киборларга дедим мен хайр.
Сени соғлом кўриб беҳад, бағоят ўсдим,
Қани дўстим, менинг билан кетдик, бирга юр...

DA VAT

M...ga

Yaxshiliklar istab keldim qoshingga do'stim,
Sen men uchun pokdomon inson erursan.
Seni sog'lom ko'rib, behad, bag'oyat o'sdim,
Sen ham mening yuragimga — bir boqib ko'rsang.
Bu dunyoda poklik ulug', haq, insof ulug',
Demak, mening mitti qalbim izlar pok darmon.
Bu dargohga kimlar kelib-ketmadi quruq,
Endi bizning yuraklarda bo'lmasin armon.
Ravshan yo'llar solmoq uchun boraylik birga,
Vazifamiz — xatolarga o't-olov qo'yish.
Kezi kelsa oyoq yalang chopaylik qirga,
Tovonlarga tikanlar urganda ham nish.
Aziz do'stim, seni istab — seni qo'msadim,
Loqaydlar-u kiborlarga dedim men xayr.
Seni sog'lom ko'rib behad, bag'oyat o'sdim,
Qani do'stim, mening bilan ketdik, birga yur...

* * *

Шоир кетди дунёдан —
«Дунё»сига тупириб.
Ундан шеър, фазал қолди,
Етимчадай ўкиниб.
Ғариб оқшом эзилиб,
Мунгли куйни куйлади,
Фазал шеърлар тизилиб —
То тонггача йиғлади...
Тонг отарда Шоирни,
Қабристонга қўйдилар.
У кучоқлаб дер ерни —
«Оҳ, мендан қутулдилар»
Шоир кетди Дунёдан —
«Дунё»сига тупириб.

* * *

Shoir ketdi dunyodan —
«Dunyo»siga tupirib.
Undan she'r, g'azal qoldi,
Etimchaday o'kinib.
G'arib oqshom ezilib,
Mungli kuyni kuyladi,
G'azal she'rlar tizilib —
To tonggacha yig'ladi...
Tong otarda Shoimi,
Qabristonga qo'ydilar.
U quchoqlab der yerni —
«Oh, mendan qutuldilar»
Shoir ketdi Dunyodan —
«Dunyo»siga tupirib.

* * *

Бахт нима?!
Бу сенинг ассадом дейишинг
Ва яна сориниб термулишинг,
Бахт бу сенсан,
Қоқигулим.
Бахт бу менман,
Попугим,
Бахтсивлик...эҳ энди,
Сўрама эркам.
Овозимни,
Овозингни,
Тиниши.
Ердан оёримнинг уэилиши...

* * *

Baxt nima?!
Bu sening assalom deyishing
Va yana sog'inib termulishing,
Baxt bu sensan,
Qoqigulim.
Baxt bu menman,
Popugim,
Baxtsizlik...eh endi,
So'rama erkam.
Ovozimni,
Ovozingni,
Tinishi.
Yerdan oyog'imning uzilishi...

* * *

Ҳар доим келасан нохуш, сўлғин юз,
Хушчақчақ дамларда қайларда юрдинг.
Йўқ, бу миннат эмас, дилимдаги сўз,
Яна нохушлиқда менга юз бурдинг.

Сенга оғир ботсин мендаги савол,
Сорлом фикрлагин, ўйлагин тўлиб.
Мен ҳам қайғурганман, одамман, алҳол,
Хушчақчақ дамларда борганман кулиб.

Мен мадад беришдан тонмайман дўстим,
Ҳар доим юрагим очиқ дўст бўлсанг.
Фақат сендан кутган оддий ўтинчим,
Шодон кунларинг ҳам қошимга келсанг.

* * *

Har doim kelasan noxush, so'lg'in yuz,
Xushchaqchaq damlarda qaylarda yurding.
Yo'q, bu minnat emas, dilimdagi so'z,
Yana noxushlikda menga yuz burding.

Senga og'ir botsin mendagi savol,
Sog'lom fikrlagin, o'ylagin to'lib.
Men ham qayg'urganman, odamman, alhol,
Xushchaqchaq damlarda borganman kulib.

Men madad berishdan tonmayman do'stim,
Har doim yuragim ochiq do'st bo'lsang.
Faqat sendan kutgan oddiy o'tinchim,
Shodon kunlaring ham qoshimga kelsang.

* * *

Одамни одамга гўзал кўрсатган,
Унинг бутун яхши хислатларидир.
Одамки, одамга нафрат уйғотган,
Демак, ёмон хулқи, иллатларидир.

Ҳа, шу икки нисбат қадимий, таниш,
Бошпана излайди фақат инсондан.
Бир-бирига қарши бошлайди уруш,
Чиқиб кетолмайди жанг майдонидан.

Ёмонлик бор экан дунёда токим,
Маломат ўқийсан ўзингга ўзинг.
Бу икки хислатга инсон сен ҳоким,
Яхшилик эшигин ланг очиб қўйгин.

* * *

Odamni odamga go'zal ko'rsatgan,
Uning butun yaxshi xislatlaridir.
Odamki, odamga nafrat uyg'otgan,
Demak, yomon xulqi, illatlaridir.

Ha, shu ikki nisbat qadimiy, tanish,
Boshpana izlaydi faqat insondan.
Bir-biriga qarshi boshlaydi urush,
Chiqib ketolmaydi jang maydonidan.

Yomonlik bor ekan dunyoda tokim,
Malomat o'qiysan o'zingga-o'zing.
Bu ikki xislatga inson sen hokim,
Yaxshilik eshigin lang ochib qo'ygin.

* * *

Тушунмадим баъзан ўй-хаёлингга,
Эрлар ғурурини топташ не учун.
Муқаддас Аёл деб сизиндим сенга,
Муҳаббат дейсанми дунёга устун.
Ўзини хок тутиб, изингдан тинмай,
Ёлғонни қучоқлаб юрганлардан қайт.
Бир сония вужудинг жимирлаб тўймай,
Эркак қучоғидан нима олдинг айт?!
Сен учун бегона ўзгалар боғи,
Беҳуда сизинди бўлмагин тунга.
Ёшлик ўтар кетар.
Маълум адори,
Сўнг қандай қарайсан
Чароғон кунга?!

* * *

Tushunmadim ba'zan o'y-xayolingga,
Erlar g'ururini toptash ne uchun.
Muqaddas Ayol deb sig'indim senga,
Muhabbat deysanmi dunyoga ustun.
O'zini xok tutib, izingdan tinmay,
Yolg'onni quchoqlab yurganlardan qayt.
Bir soniya vujuding jimirlab to'ymay,
Erkak quchog'idan nima olding ayt?!
Sen uchun begona o'zgalar bog'i,
Behuda sig'indi bo'lmagin tunga.
Yoshlik o'tar ketar.
Ma'lum adog'i,
So'ng qanday qaraysan
Charog'on kunga?!

* * *

Мен ўзимни сенга топширдим,
Сенга бағишладим ўзимни.
Ҳаммасини ҳатлаб бераман,
Юрган йўлларимни, изимни.

Ишончимни қозондинг тақдир,
Бахт, сени қучоқлаб ётибман.
Ўртада қолмасин майли сир,
Сени кашф этдим қайтадан...

* * *

Men o'zimni senga topshirdim,
Senga bag'ishladim o'zimni.
Hammasini hatlab beraman,
Yurgan yo'llarimni, izimni.

Ishonchimni qozonding taqdir,
Baxt, seni quchoqlab yotibman.
O'rtada qolmasin mayli sir,
Seni kashf etdim qaytadan...

* * *

Сиз мени билмайсиз, аччиқлансам гар,
Номингизни тутмасдан яшай оламан.
Бу ҳисларга бориб етмасин хабар,
Қаршингизда яхши ҳисга тўламан.

Сиз мени билмайсиз, аччиқлансам гар,
Ўйламай яшайман бор умрим сизни.
Бўлмасин жонимиз шу йўлда абгор,
Кўзингизда кўрай фақат кўзимни.

Сиз мени билмайсиз, аччиқлансам гар,
Ўзимни суғуриб оламан сиздан.
Кейин бўм-бўш қалбда йиғлайди баҳор,
Аччигим чиқмасин ҳеч қачон сиздан.

* * *

Siz meni bilmaysiz, achchiqlansam gar,
Nomingizni tutmasdan yashay olaman.
Bu hislarga borib etmasin xabar,
Qarshingizda yaxshi hisga to'laman.

Siz meni bilmaysiz, achchiqlansam gar,
O'ylamay yashayman bor umrim sizni.
Bo'lmasin jonimiz shu yo'lda abgor,
Ko'zingizda ko'ray faqat ko'zimni.

Siz meni bilmaysiz, achchiqlansam gar,
O'zimni sug'urib olaman sizdan.
Keyin bo'm-bo'sh qallda yig'laydi bahor,
Achchig'im chiqmasin hech qachon sizdan.

* * *

Қўрғон бераман деб қўрғон бермадинг,
Қўрғонга киришга нарвон бермадинг,
Ўзимни мен энди ҳайдалган десам,
Бир бориб кўришга имкон бермадинг.

Бошпана излайман биёбонлардан,
Сен юрган йўллардан, хиёбонлардан,
Азобим айтишга келмаган эдим,
Мен ҳаққа зор дедим, армон бермадинг.

Лутфингни аяма, қўрғонингга қўй,
Сенга бағишлайман жозибали куй,
Айтсам адо бўлмас кўнглимдаги ўй,
Берган қўрғонингни ҳамон бермадинг.

* * *

Qo'rg'on beraman deb qo'rg'on bermading,
Qo'rg'onga kirishga narvon bermading,
O'zimni men endi haydalgan desam,
Bir borib ko'rishga imkon bermading.

Boshpana izlayman biyobonlardan,
Sen yurgan yo'llardan, xiyobonlardan,
Azobim aytishga kelmagan edim,
Men haqqa zor dedim, armon bermading.

Lutfingni ayama, qo'rg'oningga qo'y,
Senga bag'ishlayman jozibali kuy,
Aytsam ado bo'lmas ko'nglimdagi o'y,
Bergan qo'rg'oningni hamon bermading.

* * *

Менга беринг дунёнинг тошини,
Бўйнимга осиб юраман.
Майли бўлсин ҳамма ташвишлар
Биттагина менинг бошимда...

Менга беринг дунёнинг ёшини,
Ёшимга қўшиб қўяман.
Оламдаги бор яхшиликларни,
Одамларга бўлиб бераман.

* * *

Menga bering dunyoning toshini,
Bo'ynimga osib yuraman.
Mayli bo'lsin hamma tashvishlar
Bittagina mening boshimda...

Menga bering dunyoning yoshini,
Yoshimga qo'shib qo'yaman.
Olamdagi bor yaxshiliklarni,
Odamlarga bo'lib beraman.

* * *

Ноз қарашлар қилиб доим,
Ғоз қарашлар қилиб доим,
Боз қарашлар қилиб доим,
Алдадингиз, алдадингиз.

Аразларга – араз қилдим,
Ярашларга – яраш қилдим,
Қарашларга – қараш қилдим,
Алдадингиз, алдадингиз.

Не ўйлар бор ўйингизда,
Айтинг, борай уйингизга,
Ваъда бериб, сўзингизда,
Алдадингиз, алдадингиз.

Синовларга суянаман,
Сизни жондан суйоламан,
Кўп сўзлашдан уяламан,
Алдадингиз, алдадингиз.

Ноз қарашлар қилаверинг,
Ғоз қарашлар қилаверинг,
Боз қарашлар қилаверинг,
Мени бунча зорладингиз,
Алдадингиз, алдадингиз.

* * *

Noz qarashlar qilib doim,
G'oz qarashlar qilib doim,
Boz qarashlar qilib doim,
Aldadingiz, aldadingiz.

Arazlarga – araz qildim,
Yarashlarga – yarash qildim,
Qarashlarga – qarash qildim,
Aldadingiz, aldadingiz.

Ne o'ylar bor o'yingizda,
Ayting, boray uyingizga,
Va'da berib, so'zingizda,
Aldadingiz, aldadingiz.

Sinovlarga suyanaman,
Sizni jondan suyolaman,
Ko'p so'zlashdan uyalaman,
Aldadingiz, aldadingiz.

Noz qarashlar qilavering,
G'oz qarashlar qilavering,
Boz qarashlar qilavering,
Meni buncha zorladingiz,
Aldadingiz, aldadingiz.

* * *

Севдим, севарим дедим,
Севаман деб сел бўлдим,
Севгимни англамаган,
Шу аёлга қул бўлдим..

Жоним берай жонингга,
Қурбон бўлай ёнингга,
Севса ҳам, севмаса ҳам,
Шу аёлга қул бўлдим.

Ўйларим ўйин бўлди,
Сўзларим сўниб сўлди,
Жоним жонингга ўлди,
Шу аёлга қул бўлдим.

Севдим, севарим дедим,
Севаман деб сел бўлдим,
Севгимни англамаган,
Шу аёлга қул бўлдим.

* * *

Sevdim, sevarim dedim,
Sevaman deb sel bo'ldim,
Sevgimni anglamagan,
Shu ayolga qul bo'ldim..

Jonim beray joningga,
Qurbon bo'lay yoningda,
Sevsa ham, sevmasa ham,
Shu ayolga qul bo'ldim.

O'ylarim o'yin bo'ldi,
So'zlarim so'nib so'ldi,
Jonim joningda o'ldi,
Shu ayolga qul bo'ldim.

Sevdim, sevarim dedim,
Sevaman deb sel bo'ldim,
Sevgimni anglamagan,
Shu ayolga qul bo'ldim.

* * *

Ҳаёт менга жуда ёқади,
Қалбимда бир аёл оқади.
У ҳам баъзан билиб-билдирмай,
Менга гоҳ қимтиниб боқади.

Ёшимга ёш тўлган чоғларим,
Севгига кўмилди боғларим,
Ўзимни-ўзингга аркалаб,
Қалбимни-қалбингга боғладим.

Ўзинг гуллаган-гулим дедим,
Сўзинг сумбулли-сўлим дедим.
Сирларимни ёйиб сирингга,
Кундузим дедим, туним дедим.

Ҳаёт менга жуда ёқади,
Қалбимда бир аёл оқади.
У ҳам баъзан билиб-билдирмай,
Менга шод, қувониб боқади.

* * *

Hayot menga juda yoqadi,
Qalbidamda bir ayol oqadi.
U ham ba'zan bilib-bildirmay,
Menga goh qimtinib boqadi.

Yoshimga yosh to'lgan chog'larim,
Sevgiga ko'mildi bog'larim,
O'zimni-o'zingga erkalab,
Qalximni-qalbingga bog'ladim.

O'zing gullagan-gulim dedim,
So'zing sumbulli-so'lim dedim.
Sirlarimni yoyib siringga,
Kunduzim dedim, tunim dedim.

Hayot menga juda yoqadi,
Qalbidamda bir ayol oqadi.
U ham ba'zan bilib-bildirmay,
Menga shod, quvonib boqadi.

* * *

Мен ем бўлдим, кўмилдим,
Рўзгорнинг тўрвасида.
Истаклар баланд эди,
Орзулар баланд эди.
Яшадим уялмасдан
Қушларнинг уясида.
Ҳаммаси ортда энди,
Ҳаммаси ортда энди...
Уялишга вақт ҳам йўқ,
Ўйлашга фурсат етмас.
Рўзгор ўтиб турибди,
Сор-саломат, кўнгил тўқ.
Билмадим яна қанча,
Умрим қанчага етар.
Тешиб ўтмоқда нишдор
Юрагимни парча ўқ...
Ўзимни қоралайман,
Турмушдан нолиш нечун.
Йўл излайман йўлимда,
Тўда-тўда, тўдалар.
Савол келаверади,
Нега бундайин, нечун?!
Кучим етмайди баъзан -
Турар турли тўралар...
Мен ем бўлдим кўмилдим,
Рўзгорнинг тўрвасида...

* * *

Men yem bo'ldim, ko'mildim,
Ro'zg'orning to'rvasida.
Istaklar baland edi,
Orzular baland edi.
Yashadim uyalmasdan
Qushlarning uyasida.
Hammasi ortda endi,
Hammasi ortda endi...
Uyalishga vaqt ham yo'q,
O'ylashga fursat yetmas.
Ro'zg'or o'tib turibdi,
Sog'-salomat, ko'ngil to'q.
Bilmadim yana qancha,
Umrim qanchaga yetar.
Teshib o'tmoqda nishdor
Yuragimni parcha o'q...
O'zimni qoralayman,
Turmushdan nolish nechun.
Yo'l izlayman yo'limda,
To'da-to'da, to'dalar.
Savol kelaveradi,
Nega bundayin, nechun?!
Kuchim etmaydi ba'zan -
Turar turli to'ralar...
Men yem bo'ldim ko'mildim,
Ro'zg'orning to'rvasida...

* * *

Лим-лим тўлди армоним,
Жим-жим сўлди дармоним,
Мадад бер мададкорим,
Чақир, олдингга борай.

Бир ибо керак менга,
Бир зебо керак менга,
Хурлиқо керак менга,
Чақир, олдингга борай.

Топганларимдан тонмай,
Ўрганиб, куйиб ёнмай,
Йўл юриб йўлдан қолмай,
Чақир, олдингга борай.

Кетаётган кун экан,
Кутаётган тун экан,
Тутаётган ун экан,
Чақир, олдингга борай.

Чопқиллаган баҳорман,
Саҳродаги саҳарман,
Йўлдан адашган армон,
Чақир, олдингга борай.

Лим-лим тўлди армоним,
Жим-жим сўлди дармоним,
Мадад бер, мададкорим,
Борай, олдингга борай.

* * *

Lim-lim to'ldi armonim,
Jim-jim so'ldi darmonim,
Madad ber madadkorim,
Chaqir, oldingga boray.

Bir ibo kerak menga,
Bir zebo kerak menga,
Hurliqo kerak menga,
Chaqir, oldingga boray.

Topganlarimdan tonmay,
O'rtanib, kuyib yonmay,
Yo'l yurib yo'ldan qolmay,
Chaqir, oldingga boray.

Ketayotgan kun ekan,
Kutayotgan tun ekan,
Tutayotgan un ekan,
Chaqir, oldingga boray.

Chopqillagan bahorman,
Sahrodagi saharman,
Yo'ldan adashgan armon,
Chaqir, oldingga boray.

Lim-lim to'ldi armonim,
Jim-jim so'ldi darmonim,
Madad ber, madadkorim,
Boray, oldingga boray.

* * *

Сил бўлиб кетаман,
Сел бўлиб кетаман,
Билиб ё билмасдан
Кул бўлиб кетаман.

Тонмагин, тонмайман,
Мен сени қўймайман,
Меҳрингга тўймайман,
Ел бўлиб кетаман.

Кўрганим чин ёлгон,
Дўстларим йўқолган,
Сен қолган, мен қолган —
Йўл бўлиб кетаман.

Оҳларинг ўлдирди,
Воҳларинг сўлдирди,
Бари бир сен томон
«Кул» бўлиб кетаман.

Сил қилиб кетдинг-а,
Сел қилиб кетдинг-а,
Билибми-билмайми,
«Кул» қилиб кетдинг-а...

* * *

Sil bo'lib ketaman,
Sel bo'lib ketaman,
Bilib yo bilmasdan
Kul bo'lib ketaman.

Tonmagin, tonmayman,
Men seni qo'ymayman,
Mehringga to'ymayman,
El bo'lib ketaman.

Ko'rganim chin yolg'on,
Do'stlarim yo'qolgan,
Sen qolgan, men qolgan —
Yo'l bo'lib ketaman.

Ohlaring o'ldirdi,
Vohlaring so'ldirdi,
Bari bir sen tomon
«Qul» bo'lib ketaman.

Sil qilib ketding-a,
Sel qilib ketding-a,
Bilibmi-bilmaymi,
«Qul» qilib ketding-a...

* * *

Пишагингни пишт демасам, нима дейсан,
Эшагингни ишш демасам, нима дейсан,
Бўлар ишлар бўлаверар, сену менсиэ
Кўрганимда хўш демасам, нима дейсан.

«Бепарвоман», бепарво бўл, бепарволар,
Кўп яшаркан бу дунёда бедаволар,
Азобларим азоб берса-не даволар
Юрагимни сенга очиб, эш демасман.

Пишагингни пишт деганлар-пишлайверсин,
Эшагингни ишш деганлар - ишлайверсин,
Бепарволар, бенаволар, бедаволар —
Бир умрга сенинг билан қишлайверсин.
Энди ҳеч ҳам мен томонга кел демасман.

* * *

Pishagingni pisht demasam, nima deysan,
Eshagingni ishsh demasam, nima deysan,
Bo'lar ishlar bo'laverat, senu mensiz
Ko'rganimda xo'sh demasam nima deysan.

«Beparvoman», beparvo bo'l, beparvolar,
Ko'p yasharkan bu dunyoda bedavolar,
Azoblarim azob bersa-ne davolar
Yuragimni senga ochib, esh demasman.

Pishagingni pisht deganlar-pishlayversin,
Eshagingni ishsh deganlar - ishlayversin,
Beparvolar, benavolar, bedavolar —
Bir umrga sening bilan qishlayversin.
Endi hech ham men tomonga kel demasman.

ТҮРТЛИКЛАР

Йўлда йўлиққанлар йўлдош эмасдир,
Ҳар кун кўришганлар қўлдош эмасдир.
Эллик йилдан кейин англадим шуни,
Саралаб «севишган»лар сирдош эмасдир.

* * *

Yo'lda yo'liqqanlar yo'ldosh emasdir,
Har kun ko'rishganlar qo'ldosh emasdir.
Ellik yildan keyin angladim shuni,
Saralab «sevishgan»lar sirdosh emasdir.

* * *

Кўзингга боқдимۇ кўзим қамашди,
Сўзингни эшитиб, сўзим адашди.
Нимасан?! Сеҳрингга бунчалар олдинг,
Сен билан сирлашдим, сирим адашди.

* * *

Ko'zingga boqdimu ko'zim qamashdi,
So'zingni eshitib, so'zim adashdi.
Nimasan?! Sehringga bunchalar olding,
Sen bilan sirlashdim, sirim adashdi.

* * *

Ўйласам ботқоққа ботавераман,
Қўлимдан иш келмас, ётавераман.
Ўзимга кўп нарса боғлиқ эканин,
Билсам-да, билмасдан ўтавераман.

* * *

O'ylasam botqoqqa botaveraman,
Qo'limdan ish kelmas, yotaveraman.
O'zimga ko'p narsa bog'liq ekanin,
Bilsam-da, bilmasdan o'taveraman.

* * *

Бу йўлда ғам чекмоқ тақдир десак ё
Шодлик ҳам бор экан, ғавғоли дунё.
Айланиб ўтишни йўлин қилолмай,
Ғам-шодлик ичда чиридик гўё.

* * *

Bu yo'lda g'am chekmoq taqdir desak yo
Shodlik ham bor ekan, g'avg'oli dunyo.
Aylanib o'tishni yo'lin qilolmay,
G'am-shodlik ichida chiridik go'yo.

* * *

Ерга тушгин, сени ер кўтаради,
Элга қўшил, қилирингни ер кўтаради.
Осмонни ушлашни ХУДОГА қўйгин,
Тобутингни бир кун эл кўтаради.

* * *

Yerga tushgin, seni er ko'taradi,
Elga qo'shil, qilig'ingni er ko'taradi.
Osmonni ushlashni XUDOGA qo'ygin,
Tobutingni bir kun el ko'taradi.

* * *

Хотинлар эрларин тергайди мудом,
«Момо Ҳаво» момонгдан мерос бу бўтам.
Барига кўниккин, барига чида,
Шу йўлни танлаган «Одам Ато» ҳам.

* * *

Xotinlar erlarin tergaydi mudom,
«Momo Havo» momongdan meros bu bo'tam.
Bariga ko'nikkin, bariga chida,
Shu yo'lni tanlagan «Odam Ato» ham.

* * *

Лапанглаб боради тобут қўлларда,
Атрофда сукунат, жимлик йўлларда.
ЖОН эса кузатар тобут устидан,
ТАН эса қутилган «ШАЙТОН» дўстидан.

* * *

Lapanglab boradi tobut qo'llarda,
Atrofdada sukunat, jimlik yo'llarda.
JON esa kuzatar tobut ustidan,
TAN esa qutilgan «SHAYTON» do'stidan.

* * *

Ожиз бандаларинг бунчалар қариб,
Бойлигига ишониб яшади қариб.
У дунёни бой берди, Бой деганлари,
Бу дунёга ем бўлди бойлиги қариб.

* * *

Ojiz bandalaring bunchalar g'arib,
Boyligiga ishonib yashadi qarib.
U dunyoni boy berdi, Boy deganlari.
Bu dunyoga yern bo'ldi boyligi qarib.

* * *

Таъбир жоиз бўлса, астағфириллоҳ денг,
Қул Аҳмадни эсланг, бисмиллоҳ денг.
Қайси йўлдан борманг манзил биттадир,
Борса келмасгача, алҳамни ўқинг.

* * *

Ta'bir joiz bo'lsa, astag'firilloh deng,
Qul Ahmadni eslang, bismilloh deng.
Qaysi yo'ldan bormang manzil bittadir,
Borsa kelmasgacha, alhamni o'qing.

* * *

Йўл узоқ, йўл яқин, манзил қаерда,
Сени илаб топар ажал ҳар ерда.
Ёлғончи дунёнинг хайирини қўй,
Оқибатинг бўлсин охират жойда.

* * *

Yo'l uzoq, yo'l yaqin, manzil qaerda,
Seni izlab topar ajal har yerda.
Yolg'onchi dunyoning xayirini qo'y,
Oqibating bo'lsin oxirat joyda.

* * *

Хурлиқо кунларни унутманг асло,
Бегам кунларни ҳам эсланг алвидо.
Бу азим дунёда бир сиқим тупроқ
Бир қулоч ер тегар тугаркан «дунё».

* * *

Hurliqo kunlarni unutmang aslo,
Beg'am kunlarni ham eslang alvido.
Bu azim dunyoda bir siqim tuproq
Bir quloch yer tegar tugarkan «dunyo».

* * *

Бир вақтлар ёрни ой сулув дердим,
Кунга тенглаштириб, кун сулув дердим.
Сулувлар ўхшамади ой таърифига
Аслида бу сўзни ёлғондан дердим.

* * *

Bir vaqtlar yorni oy suluv derdim,
Kunga tenglashtirib, kun suluv derdim.
Suluvlar o'xshamadi oy ta'rifiga
Aslida bu so'zni yolg'ondan derdim.

* * *

Яратиш бу санъат, яралиш қисмат,
Яратганга шукр, эй олий ҳиммат,
Сўзни Оллоҳ этди инсонга тортиқ.
Илоҳий ибратдир бизга МУҲАММАД.

Yaratish bu san'at, yaralish qismat,
Yaratganga shukr, ey oliy himmat,
So'zni Olloh etdi insonga tortiq.
Ilohiy ibratdir bizga MUHAMMAD.

МУНДАРИЖА

<i>Б. Йўлдошев. Ҳақгўй сатрлар</i>	3
«Олис, олисларга эркимни қўйиб...»	6
«Сочларим оқарди дардингни ўйлаб...»	8
Вақт	10
«Вайрон бўлган дил...»	12
Очиқ сўз	14
«О, менинг ўйларим...»	16
«Совиб қолди меҳрим менинг...»	18
«А...га...»	20
«Гоҳ шундай кечмишлар бўлади бошда...»	22
«Менга Усмон рухсат этинг...»	24
«Отамнинг айтгани...»	28
«Яшаган умримдан бир қоя ясаб...»	30
«Майин эркалашар, болалик йиллар...»	32
«Дим. Шеър йўқ, кайфият йўқ...»	34
«Қисқадир кундузлар, кечалар узоқ...»	36
«Энди мен осмонга қарайман...»	38
Ёмонлик тугаши	40
Қиш ҳам ўтаяпти	42
Отамга	44
Манзара	46
«Дардингни ўйлашга дардим етмади...»	48
«Юз ўтирдим барча ёлғондан...»	50
«Ёлғонни-ёлғон, деб, ҳақни-ҳақ деган...»	52
Бир вақтлар баҳорга	54
«Қаллоб замонлар ўтди...»	56
«Мен бир шеър ёзайин...»	58

«Рўзгор қилиш қийин бўлди...»	60
«Йўлимдан ўзимча йўл ахтараман...»	62
«Минг тўққиз юз эллигинчи йил...»	64
«Меҳру муҳаббатга қай кун кетди дарз...»	68
«Эркалаб бўйнингга қўлимни қўйдим...»	70
Артист дўстим	72
«Нима ўтган бўлса, мендан ҳам ўтди...»	74
«Қўлимда арра йўқ...»	76
«Бир куни кўнглимни...»	76
«Сўқмоқ йўлда кеч оқшом маҳал...»	78
Ойга	80
«Гуноҳимни айт деб кўзингга боқдим...»	82
Оромга	84
«Хом ўрилган арпа...»	86
«Сой бўйида сариқ тош...»	88
«Ёлғизим йўлимда йўлиқдинг...»	90
«Меҳринг кириб келди бедор қилбимга...»	92
«Ойдай бир йигит кириб...»	94
«Нур ёғилар устингдан...»	96
«Сен билан мангуга хайрлашаман...»	98
Қори бобо қиссаси	100
«Остонангдан ҳатлаб ўтсам ўтибман-да...»	116
«Акажон деганинг стади...»	118
«Мен дераза ортида бу кун...»	120
Усмон дўстим	122
Оғайнигинам	126
«Тоғай мурод, тоғдай эди...»	132
«Азобдан дардларим сиғмас уйимга...»	134
«Эзилиб кетаман гоҳида...»	136
«Сиз ҳеч қачон...»	138
«Ҳали номи ўчмаган одам...»	140
«Ихлосим қайтмасин сиздан чинорлар...»	142
«Уруғларни сепиб юбордик...»	144
«Ёз келади такрор, куз келар такрор...»	146
Даъват	148
«Шоир кетди дунёдан...»	150
Бахт нима?!	152
«Ҳар доим келасан нохуш-сўлғин юз...»	154
«Одамни одамга гўзал кўрсатган...»	156
«Тушунмадим баъзан ўй-хаёлингга...»	158

«Мен ўзимни сенга топширдим...»	160
«Сиз мени билмайсиз аччиқлансам гар...»	162
«Қўрғон бераман деб қўрғон бермадинг...»	164
«Менга беринг дунёнинг тошини...»	166
«Ноз қарашлар қилиб доим...»	168
«Севдим, севарим дедим...»	170
«Ҳаёт менга жуда ёқади...»	172
«Мен ем бўлдим кўмилдим...»	174
«Лим-лим тўлди армоним...»	176
«Сил бўлиб кетаман...»	178
«Пишагингни пишт демасам...»	180
Тўртликлар	182

Адабий-бадний нашр

АЛИ НИЁЗ

ВАҚТ ЗАРБИ

Шеърлар

Муҳаррир
Азиз САИД

Бадний муҳаррир
Баҳриддин БОЗОРОВ

Техник муҳаррир
Елена ДЕМЧЕНКО

Мусаҳҳиҳ
Алимурод ТОЖИЕВ

Компьютерда саҳифаловчи
Феруза БОТИРОВА

ИБ № 4131

Босишга 20.01.2006й да рухсат этилди.
Бичими 84x108 1\32. Босма тобоғи 6,0+вкл.0,25.
Шартли босма тобоғи 10,08+вкл.0,42.
Адади 1000 нусха. Бузуртма № 14.
Баҳоси келишилган нарҳда.

«Янги аср авлоди» нашриёт-матбаа марказида
тайёрланди. «Ёшлар матбуоти» босмаҳонасида босилди.
700113. Тошкент, Чилонзор-8, Қатортол кўчаси, 60.